

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MAGISTRATURA BO'LIMI**

*Qo'lyozma huquqida*  
**UDK: \_\_\_\_\_**

**ISROILOVA DILDORAXON G'OFFOROVNA**

**MILLIY PENSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA  
XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH  
YO'NALISHLARI**

**Mutaxassislik: 5A231301 – “Pensiya ishi”**

**Magistr akademik darajasini olish ushun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**f. prof. G.A.Kasimova**

**TOSHKENT – 2018**

## MUNDARIJA

### KIRISH.....

#### **I BOB. PENSIYA TIZIMINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI.....**

- 1.1. Milliy pensiya ta'minoti tizimining nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari.....
- 1.2. Pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari va yaratilgan shart-sharoitlar.....
- 1.3. Pensiya ta'minoti tizimini tashkil etishning xorijiy davlatlar tajribalari .....
- I bob bo'yicha xulosa.....

#### **II BOB. MILLIY PENSIYA TIZIMI VA XORIJIY MAMLAKATLAR PENSIYA TA'MINOTI AMALIYOTI TAHLILI.....**

- 2.1. O'zbekistonda Respublikada pensiya ta'minoti amaliyoti va unga oid tendentsiyalar tahlili.....
- 2.2. Evropa Ittifoqi va Lotin Amerikasi mamlakatlari pensiya ta'minoti amaliyoti.....
- 2.3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari pensiya ta'minoti tizimi tajribalari.....
- II bob bo'yicha xulosa.....

#### **III BOB. MILLIY PENSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH.....**

- 3.1. Jahon pensiya ta'minoti tizimidagi o'ziga xos muammolar.....
- 3.2. Xorijiy mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimidagi ilg'or tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.....
- III bob bo'yicha xulosa.....

### **XULOSA VA TAKLIFLAR.....** **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....**

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Dunyoning har qanday mamlakatida ijtimoiy siyosatning eng muhim vazifalaridan biri pensiya siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Shu borada bir fikrga alohida urg'u berib ta'kidlamogchiman: yoshi ulug' insonlar, katta avlod vakillariga e'tibor va amaliy g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta'minotini yaxshilash bundan buyon ham Prezident uchun, Hukumatimiz va barcha hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi"<sup>1</sup>. Ushbu vazifaning muvaffaqiyatli uddalanishi mamlakatning, nafaqat, ijtimoiy holatiga, balki iqtisodiy taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyatida hozirgi kunda demografik holat quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: mehnatga layoqatli aholi soni o'sishi bir muncha sustlashmoqda yoki qisqarmoqda, shu bilan birga 60 yoshdan, hattoki 80 yoshdan oshgan aholi soni o'sib borish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda<sup>2</sup>. Bunday holat jamiyatda mehnatga layoqatsizlar sonining, ya'ni pensionerlar sonining ortishiga olib kelmoqda. Asosiy muammo shundaki, "aholining qarishi" muammosiga duch kelayotgan G'arb mamlakatlari o'zining keksa fuqarolariga pensiya to'lash va zarur bo'lgan tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmay qolishi mumkin. Ushbu mamlakatlarda ishlovchilar, ya'ni mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarishi kuzatilmoqda. Yaqin istiqbolda ushbu jarayon yanada faollashishi va keyinchalik hozirgi yosh avlod o'zining keksaligini munosib ta'minlash imkoniga ega bo'lmasligi ham mumkin. 2050-yillarga borib, keksalarni pensiya bilan ta'minlashdagi muammolar o'tkirlashib, global moliyaviy inqirozga olib kelishi ham mumkin.

Aksariyat mamlakatlarda pensiyani isloh qilishning zarurligi, birinchi navbatda, demografik va qisman iqtisodiy omillar bilan xususiyatlanadi: aholining qarish jarayoni; davlat byudjeti zimmasidagi pensiya yukining oshib borishi va h.k.

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. 12-b.

<sup>2</sup> Романченко В.С. Сравнительный анализ международного опыта развития пенсионной системы. Вестник МИЭП. 2015. № 3 (20). С. 58-73.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, hozirgi iqtisodiy sharoitda dunyoning barcha mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Bu borada iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimi borasidagi ilg'or tajribalaridan O'zbekistonning milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, amaliy foydalanish mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi va ushbu magistrlik dissertatsiya ishining dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** O'zbekistonning pensiya tizimini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish yo'nalishlari tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tadqiqot predmetini pensiya tizimi bo'yicha xorijiy davlatlar tajribalari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy va iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi xorijiy davlatlarning pensiya ta'minoti tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarning bajarilishiga asoslanadi:

- milliy pensiya tizimining nazariy asoslari va xususiyatlarini yoritish;
- pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy asoslarini o'rganish, tizimlashtirish va yaratilgan shart-sharoitlarni tavsiflash;
- pensiya ta'minoti tizimini tashkil etishning xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish, tasniflash va yoritish;
- O'zbekistonda pensiya ta'minoti amaliyotini tahlil qilish va unga oid tendensiyalarni aniqlash;
- Evropa Ittifoqi va Lotin Amerikasi mamlakatlari pensiya ta'minoti amaliyotini tadqiq etish;
- Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari pensiya ta'minoti tizimi tajribalarini tahlil qilish;
- jahon pensiya tizimidagi o'ziga xos muammolarni aniqlash;
- xorijiy mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimidagi ilg'or tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

– xorij mamlakatlarining pensiya tizimi bo'yicha ilg'or tajribalaridan O'zbekistonda pensiya ta'minotini takomillashtirish bo'yichaa tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Ilmiy yangiligi:**

– xorijiy davlatlarning pensiya ta'minoti tizimi tajribalari tafsilangan va tasniflangan;

– O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi holati tadqiq qilinib, unga oid tendensiyalar aniqlangan, ilmiy xulosalar shakllantirilgan va pensiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

– Evropa Ittifoqining pensiya ta'minoti sohasidagi siyosatining ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

– xorijiy davlatlarning pensiya ta'minoti tizimidagi muammolar aniqlangan;

– xorijiy davlatlarning pensiya ta'minoti tajribalaridan kelib chiqib, pensiya ta'minoti tizimini isloh etish Kontseptsiasining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish Kontseptsiasining yaratilishini va istiqbolda pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirishni ta'minlaydi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** Pensiya ta'minoti tizimi va xorijiy mamlakatlar pensiya ta'minoti bilan bog'liq masalalar bir qancha xorijlik olimlar<sup>3</sup> – Борисенко Н.Ю., Романченко В.С., Костюнина Г.М., Федотов А.И., Quisser M. – tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan<sup>4</sup> D.Axmedov, A.Vahobov, B.Umurzakov,

---

<sup>3</sup> Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К<sup>0</sup>», 2009.; Романченко В.С. Сравнительный анализ международного опыта развития пенсионной системы. Вестник МИЭП. 2015. № 3 (20). С. 58-73.; Костюнина Г.М. Реформирование пенсионных систем в странах Латинской Америки // Труд за рубежом. – 2007. – №3. – С.79-97.; Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.; Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.; Quisser M. Pension Reform: Lessons from Latin America. OECD Development Center. Policy Brief №15. – Geneva, 1999.

<sup>4</sup> Axmedov D.Q. Ijtimoiy ta'minot huquki. Mas'ul muharrir: yu.f.d. I.Nasriev. – T.: TDYuI nashriyoti, 2008. 202-b.; Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2012. – 676 b.; Umurzakov B. X. Mehnat daftarchasi va fuqarolarning mehnat stajini hisoblab chiqish muammolari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017-yil 15-noyabr. – Toshkent: "Universitet", 2017. 13-b. Shoha'zamiy Sh.Sh. Pensiya ta'minoti tizimi investitsion modelining qiymatli antiinflyatsion kontseptsiyasi. "Moliyachi ma'lumotnomasi" jumali, 9-son, 2015. 35-36-b.; Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasi faoliyati. – T.: "Barkamol fayz media", 2017. – 280 b. Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta'minoti. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. 102-b.; Kasimova G.A.,

T.Malikov, Sh.Shoha'zamiy, G.Kasimova, B.Mamatov, Sh.Allayarov, D.Toshmuxammedovalar davlat pensiya ta'minoti, pensiya tizimining xorij tajribalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Yuqoridagi ilmiy ishlardan farqli o'laroq, ushbu magistrlik dissertatsiya ishida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Tadqiqot jarayonida dinamik, qiyosiy, deduktik, mantiqiy, analitik, sintetik va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish Kontsepsiyasining ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan "Ijtimoiy ta'minot" va "Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari" fanlarining o'quv dasturini o'qitishda va takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Magistrlik dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, 3 bob, 8 ta paragraf, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi bayon qilingan.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobida milliy pensiya tizimining nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy-me'yoriy asoslari hamda xorijiy davlatlar tajribalari yoritilgan. Ishning ikkinchi bobida O'zbekistonda pensiya ta'minoti amaliyoti tahlil qilingan, Evropa Ittifoqi, Lotin Amerikasi va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari pensiya ta'minoti amaliyoti tadqiq etilgan. Ishning uchinchisi bobida jahon pensiya ta'minoti tizimidagi o'ziga xos muammolar aniqlangan hamda xorijiy mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimidagi ilg'or tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Ishning xulosa qismida mavzu yuzasidan umumlashgan xulosalar shakllantirilgan hamda O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

# I BOB. PENSIYA TIZIMINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI

## 1.1. Milliy pensiya ta'minoti tizimining nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari

Pensiya bilan bog'liq munosabatlar ushbu iqtisodiy atamaning mazmun-mohiyati, kelib chiqishi, ahamiyati, u haqida turli vaqtlar va davlatlarda iqtisodchi-olimlar, mutaxassislar tomonidan turlicha qarashlar, talqin-ta'riflarni o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilishlarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan va ko'rsatmoqda. "Pensiya" atamasi lotincha "*pensio*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "*to'lov*" ma'nosini anglatadi. Pensiyalar ijtimoiy ta'minotning muhim ko'rinishi hisoblanib, amaldagi qonunchilikka ko'ra "pensiya – uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi"<sup>5</sup> sifatida ta'riflanadi.

O'zbekiston iqtisodchi-olimlaridan T.Malikov fikricha: "pensiya – qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo'qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovi"<sup>6</sup>. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda "Ishlovchilarning pensiya jamg'armasiga to'lovlari, iqtisodiy nuqtai nazardan ular ish haqining bir qismidir. U ishchi kuchining qiymatiga kiradi, ammo institutsional muayyan kechiktirilgan muhlatda amalga oshiriladi, bu ishlovchilarning Pensiya jamg'armasiga qo'ygan va qaytarilishi lozim bo'lgan o'ziga xos maqsadli ulushi, omonatidir"<sup>7</sup>, deya ta'riflangan.

Pensiyaning mohiyati bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda quyidagi ta'riflar ham mavjud: "Pensiya – belgilangan (pensiya) yoshiga etganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo'qotilganda, shuningdek, belgilangan muddat xizmat qilgani uchun va

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli Qarorining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-bandi, 2-xatboshi.

<sup>6</sup> Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2012. 676-b.

<sup>7</sup> Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. 232-b.

davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta'minlanishi"<sup>8</sup>. "Pensiya – sug'urtalangan shaxsga uning yo'qotilgan muayyan daromad miqdorini belgilab turuvchi darajasining kompensatsiyasidir"<sup>9</sup>. Pensiya ta'minoti davlatning muhim ijtimoiy kafolatlari hisoblanib, mehnatga layoqatsiz fuqarolar manfaatlarini ifodalaydi<sup>10</sup>.

AQShning Arizona universiteti professori J.Peng tadqiqotlarida pensiya ta'minotiga oid qarashlar bayon etilgan bo'lib, u ishlovchilarning mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuvini hamda pensiya ta'minotining dolzarb masalalarini ko'tarib chiqadi. J.Peng pensiyani fuqarolarning qarilikdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim daromad manbai ekanligini e'tirof etib, mazkur tizimda hozirdagi mavjud muammolarni va istiqboldagi o'zgarishlarni tadqiq etadi. Pensiya ta'minotiga ta'sir etuvchi omillar sifatida esa quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: hozirgi yosh avlodning pensiyaga chiqish istiqboli; AQSh va butun dunyoda aholining umrguzaronligi; ijtimoiy va tibbiy sug'urtaga oid milliy dasturlar uchun moliyaviy resurslarning taqchilligi; xususiy tarmoqdagi ishchi-xodimlar uchun an'anaviy pensiya ta'minotining yo'qolib borayotganligi; davlat sektoridagi ishchi-xodimlar uchun pensiyalar taqdim etish bahosining oshishi; tibbiyot xarajatlarining yuqori darajada o'sishi.

AQShda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'minoti, odatda, uch manba: ijtimoiy ta'minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo'ladi. Ushbu uch manba birgalikda fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlab berishi lozim bo'ladi<sup>11</sup>. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda ham pensiya "to'lov" ma'nosida ifodalanib, ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan talqin etiladi.

Umuman olganda, fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan

---

<sup>8</sup> Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – T.: "infoCom.UZ", 2010. 367-b.


<sup>9</sup> Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to'lovlaridan nima bilan farqlanadi?. – T.: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. 5-b.

<sup>10</sup> Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К<sup>0</sup>», 2009. – С. 7.

<sup>11</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 2-5.

qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to'lanadigan to'lovlarga pensiya deyiladi va ijtimoiy ta'minotning muhim shakli hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifini quyidagicha izohlash mumkin:



**1.1-rasm. Pensiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi<sup>12</sup>**

Pensiya tizimining asosiy iqtisodiy funksiyasi – jamiyat a'zolarining iqtisodiy munosabatlarida mehnatga layoqatli va layoqatsizlar, keksa va yosh avlod hamda ayollar va erkaklar o'rtasidagi mavjud iqtisodiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishdir. Ushbu funksiya muayyan xususiyatga ega bo'lib, unda jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchilar va mehnatga layoqatsizlarning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishdan iborat.

Demak, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar asosida “pensiya” atamasini quyidagicha tushunish mumkin: fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga etganida, nogironlik tufayli mehnat faoliyatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va me'yorlar asosida beriladigan har oylik to'lovlarga pensiya deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 14-yanvardagi 9-sonli qaroriga asosan Pensiya fondining O'zbekiston jumhuriyat bo'limi tashkil etilgan<sup>13</sup>. Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug'urta mablag'larining to'g'ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Kasaba

<sup>12</sup> Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasi faoliyati. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017. 13-b.

<sup>13</sup> <http://pfru.uz/uz/articles/5/>. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 4-avgustdagi 391-sonli “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug'urta jamg'armasining tashkil etish to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan.


uyushmalari federatsiyasi Kengashining 1993-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 391-sonli Qaroriga muvofiq, sobiq Ittifoq Pensiya fondining O‘zbekiston Respublika bo‘limi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etilgan. Unga O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tizimidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha, farzand tug‘ilganda, dafn etishga beriladigan nafaqalarni to‘lashga yo‘naltiriladigan davlat ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari berilgan.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, pensiya ta‘minoti uchun majburiy badallarning to‘liq kelib tushishi hamda davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha pensiya va nafaqalarni to‘lashga xarajatlarni o‘z vaqtida moliyaviy ta‘minlash uchun ijtimoiy ta‘minot organlarining mas‘uliyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi huzurida Pensiya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi<sup>14</sup> 459-sonli Qarori qabul qilindi. Unga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi va ijtimoiy ta‘minot mahalliy organlari qoshida tegishli hududiy bo‘linmalari va bo‘limlari bo‘lgan Pensiya jamg‘armasi tashkil etilgan. Ushbu jamg‘arma zimmasiga bir qator vazifalar yuklatilgan hamda uning faoliyat yo‘nalishlari belgilab berilgan: davlat ijtimoiy sug‘urtasiga badallar va ajratmalarni yig‘ish va jamlash; ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha pensiya va nafaqalarni belgilangan miqdorlarda to‘lash xarajatlarini mablag‘ bilan ta‘minlash; mablag‘lardan belgilangan maqsadda foydalanishni nazorat etish; pensionerlar, nogironlar va aholining boshqa toifalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir davlat dasturlarini mablag‘ bilan ta‘minlashda shartnoma asosida ishtirok etish; pensiya ta‘minoti bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish kabilar shular jumlasidandir.

---

<sup>14</sup> Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrda 444-sonli “O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta‘minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [qaroriga](#) asosan o‘z kuchini yo‘qotgan.

Hozirda O'zbekistonda pensiya ta'minoti 2 tizimga ajratilgan. Buni quyidagi rasm orqali ko'rish mumkin.



**1.2-rasm. Pensiya ta'minoti tizim<sup>15</sup>**

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>16</sup> 444-sonli Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2001-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi.

Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lashga yo'naltiriladigan mablag'larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek, Pensiya jamg'armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrdagi "Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 490-sonli qaroriga asosan, 2005-yil 1-yanvardan boshlab Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga aylantirildi.

Iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlarda, jumladan, AQShda pensiya

<sup>15</sup> Magistrant tomonidan shakllantirilgan.

<sup>16</sup> Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrdagi "Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 490-sonli [Qaroriga](#) muvofiq o'z kuchini yo'qotgan.

fondlarining davlat tomonidan boshqarilishi pensiyaga chiqish davlat dasturlari ijrosiga mas'ul shaxslar bilan barcha asosiy masalalarning bazaviy va tizimli muhokama qilinishini ta'minlaydi. Ularda ham pensiya tizimining shakllanish tarixi chuqur o'rganiladi, bunda pensiya sug'urtasi va tarkibi, moliyaviy hisobotlar, pensiya jamg'armasi aktivlarini investitsion boshqarish masalalariga alohida e'tibor beriladi<sup>17</sup>.

Pensiya jamg'armasining asosiy tamoyili "avlodlar birdamligi" hisoblanadi. Chunki, inson hamma vaqt birdek kuch-g'ayratli bo'lmaydi. Mohiyatan olib qaralganda, inson yoshlik vaqtlaridan boshlab keksalikdagi farovonlikni ta'minlash maqsadida Pensiya jamg'armasi ixtiyoriga pul o'tkazib boradi va ma'lum vaqt o'tgandan so'ng o'zi jamg'argan mablag' hisobidan pensiya oladi.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot (YIM)ning barqarorligi, iqtisodiyotdagi etakchi tarmoqlarning yuqori o'sish sur'atlari, davlat byudjetining profitsit bilan ijro etilishi, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash tizimini moliyalashtirishga qulay sharoit yaratmoqda. Xalqaro miqyosda katta nufuzga ega bo'lgan Jahon iqtisodiy forumi reytingiga ko'ra, O'zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o'sish prognozlarini bo'yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy olgani, albatta, barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi. Bundan tashqari, 2015-yilda mamlakatimiz Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga a'zo davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishgani uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'lgan 14 ta davlatdan biri sifatida<sup>18</sup> tan olingan.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini kafolatli himoya qilish davlatning eng muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi hisoblanib, har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining miqdor va sifat ko'rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining darajasidan dalolat beradi. Inson huquqlari Umumjahon

---


<sup>17</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 29-35.

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.

deklaratsiyasining 25-moddasida “Har bir inson ... ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog’liq bo’lmagan sharoitlarga ko’ra tirikchilik uchun mablag’ bo’lmay qolgan boshqa hollarda ta’minlanish huquqiga ega”<sup>19</sup> ekanligi ko’rsatilgan. Bu huquqlar aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi tomonidan ta’minlanadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi uchta asosiy shaklda amalga oshiriladi: ijtimoiy ta’minot; ijtimoiy sug’urta; ijtimoiy yordam.

Shu bilan bir qatorda, aholining ijtimoiy muhofaza qilishning davlat va nodavlat shakllari amal qiladi, farqlanadi (1.3-rasm).




**1.3-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi<sup>20</sup>**

O’zbekiston Respublikasining aholini ijtimoiy himoya qilish yuzasidagi davlat siyosati aholining mehnatga qobiliyatsiz tabaqalarini, obyektiv sabablarga ko’ra mehnat faoliyati yuritmaydigan fuqarolarni, belgilangan miqdorda kam daromad oladigan

<sup>19</sup> Inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar. – T.: “Adolat”, 2004. 35-b.

<sup>20</sup> Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot”, 2013. 350-b.

fuqarolarni qo'llab-quvvatlashga oid tadbirlarning yaxlit, majmuaviy tizimini ko'zda tutadi. Bu esa eng muhim ehtiyojlarni qondirishda ijtimoiy ta'minot yo'nalishi bilan bog'liq. Jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari deganimizda, eng avvalo, birgalikda qondiriladigan ehtiyojlarni tushunamiz, bu ehtiyojlarni ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar talab etiladi. Quyidagi rasmda aholi turmush darajasini belgilovchi omillar ko'rsatilgan (1.4-rasm).



**1.4-rasm. Aholi turmush darajasini belgilovchi omillar tizimi<sup>21</sup>**

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand subyektlariga quyidagilar kiradi:

1. Pensionerlar, aholining bu guruhi pul ta'minoti huquqiga ega fuqarolar bo'lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Muayyan yoshga etgan fuqarolar pensiyaga chiqish huquqiga egalar;
2. Nogironlar, aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, yashash faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar kiradi;
3. Kam ta'minlangan oilalar, ular daromadlari tirikchilik uchun eng kam miqdordan yuqori bo'lmagan oilalardir;
4. Ishsizlar, aholining bu toifasiga ishsiz va daromad topish manbai bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi.

<sup>21</sup> Kasimova G. Botirov A. Ijtimoiy soha: boshqarish va moliyalashtirish. Monografiya. – T.: “Tamaddum”, 2016.

Aholining ijtimoiy muhofazaga ehtiyojmand subyektlariga, shuningdek, quyidagilar ham kiradi: homilador va yosh bolalarga qarash bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar; kasalligi tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar; o'quvchi yoshlar; mehnatga layoqatsiz shaxslarning parvarishi bilan band bo'lgan, ishlamayotgan mehnatga layoqatli fuqarolar.

Hukumatimiz tomonidan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida, jumladan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutilgan<sup>22</sup>. Harakatlar strategiyasidagi ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishida belgilangan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi, istiqbolda, aholining ijtimoiy ta'minotini yanada yaxshilash, pensiya islohotlari samarasini oshirish imkonini yaratadi.

## **1.2. Pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari va yaratilgan shart-sharoitlar**

Pensiya tizimini tashkil etish va pensiyaga oid munosabatlarni tartibga solish O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik hujjatlari va zarur hollarda xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan davlatlararo bitimlar hamda xalqaro huquqiy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi. Jumladan<sup>23</sup>:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi;

---

<sup>22</sup> Qosimova G. Inson huquqlari kafolati – davlat ijtimoiy siyosatining asosiy mezon. "Demokratlashtirish va inson huquqlari" ilmiy-ma'rifiy jurnal. Toshkent, 2018 yil 1 (77)-son, 46-b.

<sup>23</sup> Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasi faoliyati. – T.: "Barkamol fayz media", 2017. 33-b.

– O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari va qonun osti hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida: “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas”<sup>24</sup>, deb ko‘rsatilgan.

“Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturiga muvofiq hamda 100 yoshga to‘lgan va undan oshgan shaxslarga munosib e‘tibor qaratish, shuningdek, pensionerlar, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida 2015-yil 14-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4715-son Farmoniga ko‘ra yoshi 100 ga to‘lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga 2015-yilning 1-mayidan boshlab, har oyda eng kam ish haqining 100 foizi miqdorida qo‘shimcha to‘lov to‘lash belgilandi. Yoshi 75 ga to‘lgan va undan oshgan fuqarolardan ularga tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblanishi, shuningdek, qonunchilikda ko‘zda tutilgan imtiyozlarning qo‘llanilishi to‘g‘riligini tekshirish natijalariga ko‘ra aniqlangan ortiqcha to‘langan pensiya va nafaqalar miqdori 2015-yil davomida hisobdan chiqarildi.

9-may umumxalq bayrami – Xotira va qadrlash kuni o‘tkazilishi, shuningdek, 1941-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan G‘alabaning 73-yilligi nishonlanishi munosabati bilan hamda urush qatnashchilari va nogironlarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 5 mln. so‘m miqdorida bir martalik pul mukofoti belgilandi<sup>25</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentyabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga

---

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr. 39-modda.


<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi “Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 252-sonli Qarori asosida "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi, "Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomlar tasdiqlandi va 2011-yil 1-oktyabrdan boshlab amalga kiritildi. Unda fuqarolarga pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etish, ish stajini hisoblab chiqish va tasdiqlash, pensiyani hisoblash, tayinlash, qayta hisoblab chiqish, to'lash, pensiyalarni bir turidan boshqa turiga o'tkazish, nafaqaga oid hujjatlar yig'ma jildini hisobga olish va saqlash tartibi belgilangan. Demak, yangi tartibga asosan tijorat banki orqali pensiya oladigan kishi har 6 oyda Pensiya jamg'armasi bo'limiga kelish yo'li bilan o'zining pensiya summasini olish huquqini tasdiqlashi zarur. Agarda pensioner huquqlarini yuqorida aytilgani kabi tasdiqlamasa, nafaqani to'lash fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi vakillari va qo'shnilar ishtirokida Pensiya jamg'armasi bo'limi xodimlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma asosida to'xtatib turiladi. Dalolatnomada pensiyani to'lashga va uning miqdori asoslanganligiga ta'sir etuvchi holat ko'rsatiladi. Shuningdek, qarorda pensiyani ishonchnomalar orqali oluvchilar uchun ham ko'rsatma bor. Ya'ni, ishonchnoma bergan shaxs Pensiya jamg'armasi bo'limiga bir yilda kamida bir marta kelib, tayinlangan pensiyaga bo'lgan o'z huquqini tasdiqlashi kerakligi ko'rsatilgan. Ishonchli vakil esa pensiya to'lashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, o'ziga ma'lum barcha holatlar to'g'risida jamg'arma bo'limiga xabar berishi shart. Ishonchnoma pochtaning tegishli tarkibiy bo'linmasida saqlanishi va ushbu bo'linmaning asosiy muhri va rahbarning imzosi bilan tasdiqlangach, 10 kun muddat ichida Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuborilishi zarur.

Pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1252-sonli Qaroriga ko'ra, 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi va amalga

kiritildi.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonunga ko’ra davlat pensiyalarining turlari quyidagi 1.5-rasmda tasvirlangan.



**1.5-rasm. Davlat pensiyalarining turlari<sup>26</sup>**

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasidan o’z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to’liq hajmda to’lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta’minotiga yo’naltiriladigan mablag’lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar,

<sup>26</sup> O’zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonuni. 2-modda.

kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda<sup>27</sup>. Shuni ham ta'kidlash joizki, respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi<sup>28</sup>.

“Keksalarni e'zozlash yili”da “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi:

- sudyalari va prokuratura organlari xodimlarining pensiya ta'minoti boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

- O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro Hukumatlararo tashkilotlarning kvota o'rinlariga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning hamda ularning turmush o'rtoqlarining chet elda bo'lgan vaqti ish stajiga qo'shib hisoblanadi;

- dafn marosimi uchun nafaqa miqdori eng kam oylik ish haqining 4 barobari miqdorida to'lanadi;

- hisoblangan, ammo pensioner tomonidan o'z vaqtida olinmagan pensiyalarni o'tgan vaqt uchun to'lash muddatlari 3 yildan 12 oyga qisqartiriladi;

- shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonunining 26, 28, 29, 30, 31 va 38-moddalarida belgilangan

---

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda “Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4161-sonli Farmoni.

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-aprelda 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizom.

normalar boshqa qonun hujjatlarida belgilangan normalarga moslashtirildi. Bunda mazkur o'zgartirishlar pensiya miqdorlarining oshishi yoki kamayishini ko'zda tutmagan.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-iyundagi "Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 110-sonli qarori 3-bandi bilan davlat soliq organlari zimmasiga yuridik shaxslar tomonidan majburiy jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblanishi hamda fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan nazorat o'rnatish, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallar o'z vaqtida va to'liq o'tkazilmaganligi uchun aybdor shaxslarga nisbatan soliqqa oid amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ta'sir choralari qo'llash vazifalari yuklatildi.

Ish beruvchilarning, shuningdek, mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida keltirilgan qarorlarini to'laqonli amalga oshirish maqsadida 2012-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2012-2016-yillarga mo'ljallangan davlat pensiya

tizimini barqaror rivojlantirish, qulay ijtimoiy muhitni shakllantirish orqali fuqarolarni davlat tomonidan kafolatlangan pensiyalar bilan ta'minlash shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar kompleks rejasida quyidagilar ko'zda tutilgan: davlat pensiya ta'minoti tizimidagi qonunchilik bazasini va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish; pensiya tizimini takomillashtirish va davlat organlari hamda ularning joylardagi boshqarmalari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish bo'yicha choralar; Pensiya jamg'armasi daromadlarini mustahkamlash bo'yicha choralar; pensiya va ijtimoiy nafaqa to'lovlarini o'z vaqtida ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar; Pensiya jamg'armasi tarkibiy bo'linmalarining moddiy-texnik bazasining sifatini va jihozlanganlik darajasini yaxshilash bo'yicha choralar; davlat pensiya tizimidagi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

2017-yilning 1-dekabridan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar hamda nafaqalar miqdori o'rta hisobda 1,15 baravar oshirildi. 2017-yilning 1-dekabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida eng kam<sup>29</sup>:


- ish haqi – oyiga 172240 so'm;
- yoshga doir pensiyalar – oyiga 336880 so'm;
- bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa – oyiga 336880 so'm;
- zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa oyiga 206720 so'm miqdorida belgilandi.

2018-yil 13-fevralda "Ichki ishlar organlari xodimlariga pensiya va nafaqa tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida"gi 36-sonli Yo'riqnoma tasdiqlandi<sup>30</sup>. Unga ko'ra ichki ishlar organlari xodimlariga pensiya va nafaqa tayinlashni rasmiylashtirish, tayinlash, to'lash, pensiyalardan chegirmalar qilish, pensiya va nafaqa to'lovi uchun mablag'lar hisobi va hisobotini yuritish tartibi ishlab chiqildi. Mazkur yo'riqnoma asosida ichki ishlar organlari xodimlari yoki ularning oila a'zolariga pensiya va nafaqaning quyidagi turlari tayinlanadi (1.6-rasm):

---

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2018-yil 13-fevraldagi "Ichki ishlar organlari xodimlariga pensiya va nafaqa tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 36-sonli buyrug'i.



**1.6-rasm. Ichki ishlar organlari xodimlari yoki ularning oila a'zolariga tayinlanadigan pensiya va nafaqaning turlari<sup>31</sup>**

Umuman olganda, istiqlol bergan imkoniyatlar va Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquqlar tufayli mamlakatimiz pensiya ta'minoti tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar natijasida, eng avvalo, inson manfaatlarini aks ettirgan ko'plab o'zgarish va yangiliklarga qo'l urildi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish imkonini berdi.

Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash tizimini tubdan takomillashtirish, pensionerlar, talabalar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoyasini so'zsiz ta'minlash va ular uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida 2017-yil 2-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2753-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror mamlakatimiz hududlarida ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar to'lashdagi mavjud ahvolni tanqidiy tahlil qilish natijasida qabul qilingan bo'lib, 2017-yil fevral oyidan boshlab:

– birinchidan, barcha turdagi pensiyalarni to'lash hech qanday cheklovlarisiz to'liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi;

<sup>31</sup> Amaldagi qonun hujjatlari asosida magistr tomonidan shakllantirilgan.

– ikkinchidan, 58 ta tog'li va olis tumanlarda joylashgan byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi to'lash, shuningdek, ushbu tumanlar aholisiga ijtimoiy to'lovlar ham hech qanday cheklovlarsiz to'liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi;

– uchinchidan, oliy o'quv yurtlari talabalariga stipendiya to'lash 50 foizdan kam bo'lmagan miqdorda naqd shaklda amalga oshirilishi belgilangan.

Fikrimizcha, ushbu qaror ijrosini ta'minlash ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hamda ularga tenglashtirilgan to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq vaziyatni tubdan yaxshilash va fuqarolarning o'z pul mablag'larini o'zlariga qulay shaklda olish bo'yicha qonuniy huquqlarini to'la ta'minlashga xizmat qiladi.

Pensiyalar va nafaqalar to'lash tizimini tubdan takomillashtirish, naqd pul shaklida pensiyalar va nafaqalarni etkazib berish va o'z vaqtida to'lash bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni to'liq va muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida 2017-yil 13-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori<sup>32</sup>ga ko'ra 2017-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida pensiyalar va nafaqalarni to'lash faqat Xalq banki tomonidan amalga oshirilmoqda, pensiyalar va nafaqalarni maxsus kassalardan olish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslarga pensiyalar va nafaqalar Xalq banki tomonidan etkazib berilmoqda.

### **1.3. Pensiya ta'minoti tizimini tashkil etishning xorijiy davlatlar tajribalari**

Dunyoning turli mamlakatlarida pensiya tizimi shakllangan davrdan buyon taqsimlovchi pensiya tizimi amal qilib keldi va bu tizim "avlodlar birdamligi" printsipiga asoslangan edi. Bunday tizim ish beruvchilar tomonidan ajratmalar qilish orqali mehnat haqi fondiga mutanosib ravishda o'z ishchilariga pensiya to'lash imkonini berdi. Bunda pensiya islohotlarining tub mohiyati ish beruvchi va ishlovchilarning o'zaro munosabatlarida, ishlovchilarning keksalik davridagi ijtimoiy ta'minoti yuzasidan mas'uliyatini yanada oshirishda, ish beruvchilar tomonidan sug'urta badallarini to'lashda ularning javobgarligini oshirishda o'z ifodasini topadi.

---

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martdagi "Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2826-sonli Qarori.

Xorijiy davlatlarda pensiya tizimini umumlashgan uch darajali tizim shaklida amalga oshiriladi: davlat nazorati ostida pensiya jamg'armalaridan amalga oshiriluvchi umumiy va majburiy pensiya tizimi; majburiy jamg'arma tizimi orqali beriladigan va minimal jamg'armani "to'plagan" kishilar uchun ijtimoiy pensiya tizimi; to'liq kapitallashtirish va jamg'arish tamoyiliga asoslangan, mablag'larni individual hisob-raqamlarda yuritish orqali amalga oshiriladigan pensiya tizimi<sup>33</sup>.

Evropa Ittifoqi (EI) tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda<sup>34</sup> davlat pensiya ta'minoti tizimlari, asosan, avlodlar birdamligi (PAYG) tamoyili asosida tashkil etilgan. Bunda sug'urta badallari soliqlar ko'rinishida yollanma ishchilardan yig'ib olinib, davlat pensiya fondlariga yo'naltiriladi. EI mamlakatlari iqtisodiyotining xususiy sektorida amal qilayotgan xususiy pensiya ta'minoti dasturlarida pensiya sug'urta badallari sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi kelishilgan shartnomalar asosida xususiy pensiya fondlariga jalb etiladi. Davlat pensiya ta'minoti tizimi iqtisodiyotning davlat sektorida faoliyat yuritayotgan ishchilar guruhlariga uchun amal qilib kelgan bo'lib, hozirda ushbu pensiyalar miqdorini kamaytirish va pensiya ta'minoti olish uchun qo'yiladigan talablarni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>35</sup>.

EIGA a'zo mamlakatlarda shakllantirilgan pensiya ta'minoti tizimini ikki yirik modelga ajratish mumkin (1.1-jadvalga qarang): pensiya ta'minotining (milliy) universal tizimi va sug'urta munosabatlari asosida shakllantirilgan sug'urtaviy pensiya tizimi.

## 1.1-jadval

### Pensiya ta'minoti tizimining muhim xususiyatlari<sup>36</sup>

| Ko'rsatkichlar           | Sug'urtaviy tizim                                        | Universal tizim                           |
|--------------------------|----------------------------------------------------------|-------------------------------------------|
| Ta'minlanganlik darajasi | Standart                                                 | Minimal                                   |
| Pensiya ta'minoti shakli | Avvalgi shakllantirilgan daromadlarga asoslangan pensiya | Avvalgi daromadlarga asoslanmagan pensiya |

<sup>33</sup> Kasimova G.A. O'zbekistonda xorijiy davlatlar pensiya jamg'armalari faoliyatining tajribasidan foydalanish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 6-son, 2017. [www.interfinanse.uz](http://www.interfinanse.uz).

<sup>34</sup> Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Germaniya, Daniya, Italiya, Irlandiya, Ispaniya, Kipr, Lyuksemburg, Latviya, Litva, Malta, Niderlandiya, Portugaliya, Polsha, Ruminya, Sloveniya, Slovakiya, Frantsiya, Finlyandiya, Xorvatiya, Chexiya, Shvetsiya, Estoniya.

<sup>35</sup> Vaxabov A.V. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimini isloh etish istiqbollari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017-yil 15-noyabr. – Toshkent: "Universitet", 2017. 65-b.

<sup>36</sup> Old age in Europe. Luxemburg. 2001. – P. 5.

|                                                       |                                           |                                   |
|-------------------------------------------------------|-------------------------------------------|-----------------------------------|
| Moliyalashtirish                                      | Sug'urta asosida                          | Soliqlar asosida                  |
| Pensiya ta'minotidan foydalanishning dastlabki sharti | Sug'urta muassasiga a'zolik               | Mamlakatda yashash yoki fuqarolik |
| Tashkiliy shakli                                      | O'z-o'zini boshqaruvchi sug'urta fondlari | Davlat muassasalari               |

Qayd etish lozimki, EI mamlakatlarining ijtimoiy soha byudjetining 60 foiz mablag'lari sug'urta ajratmalari hisobidan shakllanadi<sup>37</sup>. Bu esa, o'z o'rnida, pensiya ta'minotini amalga oshirishda ijtimoiy sug'urta munosabatlarning shakllanganlik darajasini anglatadi. Sababi, xorijiy tajribada ijtimoiy soha faoliyatini tashkil etishda sug'urta munosabatlari etakchi o'rinni egallaydi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida pensiya islohotlari modeli o'ziga xos xususiyatlarga, umumiylik jihatlariga ega (1.2-jadval).

**1.2-jadval**

**Lotin Amerikasi mamlakatlarida pensiya islohotlarining xususiyatlari<sup>38</sup>**

| Xususiyatlar                                                   | Chili      | Kolumbiya | Argentina | Urugvay   | Meksika         |
|----------------------------------------------------------------|------------|-----------|-----------|-----------|-----------------|
| Pensiya islohotlarining boshlanish davri                       | 1981-y.    | 1994-y.   | 1994-y.   | 1996-y.   | 1997-y.         |
| "Pay-as-you-go" davlat tizimi                                  | Tugatilgan | Amalda    | Amalda    | Amalda    | Tugatilgan      |
| Jamg'arib boriladigan pensiya                                  | Majburiy   | Ixtiyoriy | Ixtiyoriy | Ixtiyoriy | Majburiy        |
| Boshqaruvchi pensiya fondlari                                  | AFP        | AFP       | AFJP      | AFAP      | AFORES          |
| Ish haqi hisobidan ajratmalar miqdori, %                       | 10         | 10        | 7,5       | 7,5       | 6,5 + dotatsiya |
| Mehnatga layoqatsizlik va boquvchisini yo'qotganlik sug'urtasi | Xususiy    | Xususiy   | Xususiy   | Xususiy   | Davlat          |

Agar Chili, Meksika, Boliviya va Salvadora taqsimlovchi pensiya tizimi tugatilgan bo'lsa, boshqa mamlakatlarda esa ishchining tanlash huquqi saqlab qoling. Ishchilar uchun yangi joriy qilingan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi Meksika, Chili va Boliviya majburiy xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, boshqalarida ixtiyoriydir. Ish haqi hisobidan individual jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga ajratmalar miqdori 4,5 foizdan (Salvadora) 10 foizgachani (Chili va Kolumbiya) tashkil qiladi. Jamg'arib boriladigan pensiyaga qilingan ajratmalarning minimal

<sup>37</sup> Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: автореф. ... к.э.н. – Москва: ФГБОУ ВПО Гос. Унив. Управ., 2013. – С. 31.

<sup>38</sup> Quiesser M. Pension Reform: Lessons from Latin America. OECD Development Center. Policy Brief №15. – Geneva, 1999. – P. 11.

daromadlilik darajasi ham farq qiladi.

Quyidagi 1.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellaridan foydalanishmoqda: davlat ijtimoiy ta'minoti; majburiy ijtimoiy sug'urta; xususiy pensiya sug'urtasi va boshqalar.

### 1.3-jadval

#### Asosiy pensiya modellarining taqqoslama tahlili<sup>39</sup>

| Belgilar                                              | Lotin Amerikasi pensiya modeli                                                                                                                                                                          | Evropa Ittifoqi mamlakatlari pensiya modeli                                                                                                                                                                                                                                                                                          | Sobiq ittifoq mamlakatlari pensiya modeli                                                                                                                                                                                                                                                              |
|-------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Islohotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari</b> | Demografik va iqtisodiy shart-sharoitlar qulay. Islohotlar boshida mamlakat aholisining yarmini 15 yoshdan kichiklar tashkil qilgan, ishlayotganlar soni esa pensionerlar sonidan 10 marta ko'p bo'lgan | Pensiya tizimini isloh qilish industrial rivojlanish bosqichida. Islohotlarni amalsha oshirish davrida demografik omillarda jiddiy o'zgarishlar kuzatilgan                                                                                                                                                                           | Pensiyaga chiqish yoshining nisbatan kichikligi, pensiya bo'yicha imtiyozlarning ko'pligi, etarli darajada iqtisodiyotning rivojlanmaganligi                                                                                                                                                           |
| <b>Islohotlar tavsifi</b>                             | Tub islohotlar amalga oshirildi                                                                                                                                                                         | Parametrlil yondashuv                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | Tizimli yondashuv                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| <b>Islohotlar mohiyati</b>                            | Jamg'arib boriladigan davlat pensiya tizimiga o'tishning majburiyligi va tezkorligi                                                                                                                     | Avlodlar birdamligi pensiya tizimi etakchi bo'lgan holda pensiya sxemalarini qisman jamg'ariladigan tizim asosida qayta tashkil qilish                                                                                                                                                                                               | Pensiya tizimining taqsimlovchi komponentlarini takomillashtirish orqali pensiya tadbirlarini diversifikatsiyalash va xususiy tizimni yaratish                                                                                                                                                         |
| <b>Islohotlar maqsadi</b>                             | Ko'p darajali pensiya tizimiga o'tish yoki majburiy jamg'arib boriladigan sxemalar asosida ko'p darajali model joriy qilish                                                                             | Ikki bosqichli pensiya tizimini yaratish:<br>1. Umumiy soliqlar hisobidan moliyalashtiriluvchi majburiy davlat tizimi. Minimal daromadni ta'minlaydi<br>2. Ishchining ish haqiga bog'liq bo'lgan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi (tanlash huquqi asosida davlat pensiya sxemasi yoki xususiy pensiya fondlarida ishtirok etish) | Ko'p darajali tizimni yaratish, uning maqsadi birdamlik sxemasining afzalliklarini jamg'arib boriladigan sxemaning afzalliklari bilan birlashtirish va u uch qismdan iborat:<br>1. Bazaviy (birdamlik prinsipi asosida);<br>2. Majburiy jamg'arib boriladigan;<br>3. Xususiy ixtiyoriy sug'urta tizimi |

Aslida, taqsimlovchi yoki jamg'arib boriladigan printsip asosidagi pensiya modellari kamdan-kam hollarda sof shaklda topiladi. Asosan, aralash yoki ko'p darajali pensiya tizimlari amal qiladi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida sug'urtaviy pensiya ta'minoti tizimi quyidagi tamoyillar asosida shakllandi:

– iqtisodiy faol aholini sug'urtalash;

<sup>39</sup> Романченко В.С. Сравнительный анализ международного опыта развития пенсионной системы. Вестник МИЭП. 2015. № 3 (20). – С. 58-73.

– pensiya to'lovlarini ishchilar va sug'urtalanganlarning sug'urta badallari hisobidan moliyalashtirish;

– amalga oshirilayotgan pensiya to'lovlarining sug'urtalanuvchining avvalgi daromadlari va sug'urta stajiga bog'liqligi.

Mazkur mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimi yagona kontseptsiya asosida faoliyat yuritsada, ularning ba'zi farqli jihatlari mavjud. Xususan, molishlashtirish, tashkiliy tuzilma va funksional vazifalari shular jumlasidandir. Shu boisdan, sug'urtaviy pensiya modeli EI mamlakatlarida aralash shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, taqsimlash (majburiy sug'urta pensiyasi), qo'shimcha pensiya dasturlari (Fransiya va Ispaniya) taqsimot pensiya tizimi shaklida amalga oshadi, to'lovlar kapital qo'yilmalarga yo'naltiriladi (Niderlandiya).

Jahon tajribasida hech bir davlatda to'liq jamg'ariladigan yoki taqsimlanadigan pensiya ta'minoti mavjud emas. Qayd etish lozim, barcha pensionerlarning yashash minimumini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni takomillashtirish natijasida pensiya ta'minotining umumiylikka ega bo'layotganligini ko'ramiz.

Umuman olganda, jahon tajribasida pensiya ta'minoti tizimi nazariy jihatdan ikki yirik guruhga ajratiladi<sup>40</sup>:

1. O'rnatilgan to'lov tizimi (Defined Benefit – DB);
2. O'rnatilgan badal tizimi (Defined Contribution – DC).

O'rnatilgan to'lov tizimida pensiya ta'minoti ishtirokchilari muayyan hajmdagi pensiya va nafaqalar bilan ta'minlanishi kafolatlanadi. Mazkur holatda to'lov miqdori aktuar hisoblar yordamida oxirgi yildagi mehnat faoliyati uchun ish haqlari va oldingi staji asosida hisoblanadi. Pensiya to'lovi pensionerning umri davomida annuitet shaklda amalga oshirilib boriladi.

O'rnatilgan badal tizimida pensiya to'lovining miqdori oldingi to'langan badallarning hajmiga bog'liq bo'ladi. Bu borada, ushbu turdagi pensiya fondining mablag'laridan investitsion faoliyat yordamida olingan daromadlar ham pensiya miqdorini oshirishi mumkin yoki aksincha. Mazkur tizimda har bir ishtirokchi alohida

---

<sup>40</sup> Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период: автореф. ... к.э.н. – Москва: ФГБОУ ВПО Гос. Унив. Управ., 2013. – С. 31.

hisobraqamga ega bo'ladi va unda badallar jamg'arib boriladi. Ushbu tizimning farqli xususiyatlaridan biri pensiya to'lovlarini olishda riskning mavjudligidir.

Tadqiqotlar asosida ta'kidlash lozimki, pensiya ta'minotini quyidagilar yordamida yanada oydinlashtirish mumkin: davlat majburiy pensiya ta'minoti; qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimi, xo'jalik subyektlari tomonidan ishchi-xodimlari uchun pensiya sug'urtasini to'lash; shaxsiy sug'urtaviy pensiya dasturlari.

Qayd etilgan uch darajali pensiya ta'minoti tizimi EI mamlakatlari uchun xarakterli bo'lib, ularni tashkil etuvchi quyidagi tamoyillarni qayd etish mumkin:

- pensiya ta'minoti tizimini aholini qamrab olish miqyosi;
- pensiya to'lovlarini olishda mavjud bo'lgan shartlar;
- moliyalashtirish manbalari va tamoyillari.

Masalan, hozirgi kunda Buyuk Britaniyada pensiya ta'minoti xizmatining aholini qamrab olish darajasi quyidagicha<sup>41</sup>: davlat majburiy pensiya ta'minoti – 65 foiz; qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimi (xo'jalik subyektlari tomonidan ta'minlanadigan pensiya sug'urtasi) – 25 foiz; shaxsiy sug'urtaviy pensiya ta'minoti – 10 foiz.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida, ta'kidlash lozimki, iqtisodiy va demografik o'zgarishlar sezilarli darajada yuz berayotganligi pensiya ta'minoti qamrovi miqyosiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan, pensiyaga chiqish yoshining qanday belgilanishi muhim hisoblanadi. Ba'zi EI davlatlarida pensiya yoshiga etgandan so'ng ham ish faoliyatini davom ettirish holatlariga ruxsat berilgan. Bu esa, pensiya yoshidan o'tgandan keyingi mehnat faoliyati pensiya miqdorini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Masalaning ikkinchi jihati, ba'zi hollarda mehnatga layoqatlilar bilan pensionerlar o'rtasidagi nisbatning oshishiga sabab bo'ladi.

Elning ayrim mamlakatlarida pensiyaga chiqish yoshi, pensiyaning o'rtacha miqdori va pensiya olish tartiblari (1.4-jadval) bir-biridan farq qiladi. Ushbu farqlanish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan, pensiya islohotlari samarasidan, demografik omillardan kelib chiqadi.

#### **1.4-jadval**

#### **Evropa Ittifoqining ayrim mamlakatlarida pensiyaga chiqish yoshi,**

<sup>41</sup> Волков Я. Моделирование пенсионных реформ и оценка неявного пенсионного долга // Вопросы экономики. – Москва, 2009. - №4. – С. 113-127.

## pensiyaning o'rtacha miqdori va pensiya olish tartiblari<sup>42</sup>

| Mamlakatlar     | Pensiyaga chiqish yoshi, yil | Pensiyaning o'rtacha miqdori, oyiga | Pensiya olish tartibi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|-----------------|------------------------------|-------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Buyuk Britaniya | 66/66                        | 1590 funt yoki 2000 AQSh dollari    | Bazaviy davlat pensiyasini olish uchun fuqarolar ijtimoiy sug'urta fondiga 10 yildan kam bo'lmagan muddat mobaynida ish haqining 10 foizi miqdoridagi mablag'ni o'tkazib borishi zarur. Ish beruvchi tomonidan ham pensiya fondiga mablag' to'lanadi. Shuningdek, nodavlat pensiya fondlarida shaxsiy pensiya hisobraqamlariga mustaqil ravishda pul jamg'arib borishlari kerak.                                                                                         |
| Fransiya        | 62                           | 1000-1200 evro                      | Fuqarolar bazaviy pensiya olishlari uchun daromadining 16,35 foizini har oyda pensiya fondiga o'tkazib boradi. Pensiya miqdorini oshirish imkonini beruvchi qo'shimcha ballar olish uchun Arrco va Agirc jamg'arma kassalariga sug'urta badallari to'lashlari zarur. Yuqori pensiya olishlari uchun 40 yillik mehnat staji talab etiladi.                                                                                                                                |
| Isroil          | 67/62                        | 1500 AQSh dollari                   | Fuqarolar 30 yil davomida pensiya fondiga ajratmalar qilsagina pensiya miqdori 1500 AQSh dollarini tashkil qiladi. Oyiga 370 AQSh dollari miqdoridagi qarilik nafaqasini olishi uchun ish haqining 6,95 foizidan 18,5 foizigacha miqdorini har oyda Milliy sug'urta kompaniyasiga o'tkazishlari zarur. Fuqarolar 10 yildan kam bo'lmagan muddat mobaynida pensiya fondiga ajratmalar qilishi lozim, bunda 700 AQSh dollari miqdoridagi pensiyaga umid qilishlari mumkin. |
| Ispaniya        | 65                           | 850 Evro                            | Fuqarolar to'laonli pensiya olishlari uchun kamida 37 yil mehnat stajiga ega bo'lishlari zarur.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| Germaniya       | 65                           | 1200 Evro                           | Har bir ishlovchi majburiy tartibda davlat pensiya fondiga oylik ish haqining 20,3 foizi miqdorida badal to'lashi zarur. Bu badalning yarmi ishchi tomonidan to'lansa, qolgani ish beruvchi tomonidan to'lanadi.                                                                                                                                                                                                                                                         |

Lotin Amerikasida pensiya tizimi islohotlari 1980-yillarda boshlangan. 1981-yilda Chili taqsimlovchi ("pay-as-you-go") pensiya tizimidan jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga o'tdi. Aksariyat Lotin Amerikasi davlatlarida ekspert sifatida Jahon banki xodimlari va Chili davlati iqtisodchilari faol qatnashib, pensiya tizimini isloh qilishda moliyaviy ko'mak berish maqsadida 47 ta kredit doirasida 3 mlrd. AQSh dollari ajratishdi (1.5-jadval).

### 1.5-jadval

#### Lotin Amerikasi pensiya tizimining isloh qilinishida Jahon bankining moliyaviy ko'magi (mln. AQSh dollari)<sup>43</sup>

<sup>42</sup> <http://www.the-village.ru/village/business/figures/245795-pensii>.

| <b>Mamlakatlar</b> | <b>Kredit hajmi</b> | <b>Kreditlar soni</b> |
|--------------------|---------------------|-----------------------|
| Braziliya          | 1326,3              | 9                     |
| Meksika            | 604,3               | 4                     |
| Argentina          | 481,1               | 8                     |
| Peru               | 363,6               | 6                     |
| Urugvay            | 149,3               | 5                     |
| Kolumbiya          | 63,7                | 3                     |
| Boliviya           | 13,6                | 6                     |
| Panama             | 24,5                | 3                     |
| Yamayka            | 8,9                 | 2                     |
| Gonduras           | 4,2                 | 2                     |
| Chili              | 1,4                 | 1                     |
| Boshqa davlatlar   | 26,6                | 2                     |
| <b>Jami</b>        | <b>3067,5</b>       | <b>51</b>             |

Ayrim davlatlarda moliyaviy ko'mak hajmi jiddiy farqlanadi. Bunda Jahon bankining asosiy qarz oluvchisi, ya'ni taqsimlovchi pensiya tizimi islohotlarini amalga oshirgan Braziliya bo'lsa (1326,3 mln. AQSh dollari), jamg'arib boriladigan pensiya tizimini butun dunyoda joriy qilish bo'yicha etakchi bo'lgan Chili davlatiga (1,4 mln. AQSh dollari) eng kam miqdorda moliyaviy ko'mak berilgan.

Pensiya modellarini ishlab chiqish va pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarda faol qatnashgan Jahon banki ekspertlarining fikricha, Chilining pensiya islohoti uch asosiy tayanch elementlarga asoslanadi va davlat xarakteriga ega:

1. Birinchi tayanch element – davlat pensiya ta'minoti. Ushbu tizim uch jihatga ega: kelgusi pensiya uchun moliyaviy mablag'lar to'lay olmaydigan aholining eng kam ta'minlangan qatlamining pensiya ta'minoti. Bu tizim PASIS (pensiones asistenciales) deb nomlanadi; 20 yil (nogironlar uchun 10 yil) davomida pensiya fondlarini boshqaruvchi kompaniyalarga mablag' o'tkazgan shaxslarga davlat tomonidan kafolatlangan minimal pensiya ta'minoti. Bu tizim AFP (Administradoras de Fondos de Pensiones) deb nomlanadi; Milliy pensiya fondi hisobidan davlat pensiya ta'minoti. Bu tizim INP (Instituto de Normalizacion Provisional) deb nomlanadi. Bu avvalgi "pay-as-you-go" doirasida bo'lib, 1981-yilgacha ishlab, pensiya chiqqanlarga amal qiladi. Milliy pensiya fondi Qurolli kuchlar va Poliyatsiyachilar pensiya fondini boshqaradi.

2. Ikkinchi tayanch element – pensiya uchun majburiy ajratmalar, hayot sug'urtasi va mehnatga layoqatsizlik bo'yicha ajratmalar hisobidan shakllanuvchi AFP

<sup>43</sup> Pension Systems in World Bank-Assisted Countries. Washington, 2005. – P.67.

dasturi<sup>44</sup> doirasidagi majburiy individual jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlaridir. 1981-yilga qadar mehnat faoliyatini boshlagan har bir ishchi eski yoki yangi pensiya tizimini tanlash huquqiga ega, agarda 1981-yildan mehnat faoliyatini boshlasa, unda yangi pensiya tizimini qabul qilishga majbur.

3. Uchinchi tayanch element ixtiyoriy ajratmalar hisobidan o'zining pensiya ta'minoti darajasini oshirishga qaror qilgan shaxslar uchun individual jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlarini shakllantirishini nazarda tutadi.

Shuni ta'kidlash joizki, milliy pensiya tizimini isloh qilishning Chili tajribasi, alohida xarajatlar talab etilganiga qaramasdan muvaffaqiyatli chiqdi. Milliy va xorijiy analitiklar, Jahon banki ekspertlari fikricha ushbu tizim samarali ishlamoqda va bu tajriba Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlari (Meksika) va Markaziy hamda Sharqiy Evropa davlatlari tomonidan ham ijobiy baholanib, joriy qilinmoqda.

### **1-bob bo'yicha xulosa:**

– fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga etganida, nogironlik tufayli mehnat faoliyatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va me'yorlar asosida beriladigan har oylik to'lovlarga pensiya deyiladi;

– pensiya tizimiga doir qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar: davlat pensiya ta'minoti tizimidagi qonunchilik bazasini va huquqiy hujjatlarni takomillashtirish; davlat organlari hamda ularning joylardagi boshqarmalari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish; Pensiya jamg'armasi daromadlari bazasini mustahkamlash; pensiya va ijtimoiy nafaqa to'lovlarini o'z vaqtida ta'minlash; Pensiya jamg'armasi tarkibiy bo'linmalarining moddiy-texnik bazasining sifatini yaxshilash hamda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, pensiya va ijtimoiy nafaqalarning to'g'ri, asosli va qonun doirasida tayinlanishiga va fuqarolarning ijtimoiy barqarorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bunday g'amxo'rlik va imtiyozlar davlatimizning pensionerlar ijtimoiy himoyasiga

---

<sup>44</sup> Mamanazarov M.A. Jamg'ariladigan pensiya tizimining afzalliklari va kamchiliklari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017-yil 15-noyabr. – Toshkent: "Universitet", 2017. 73-b.

doimiy e'tiborining yaqqol ifodasidir;

- ijtimoiy sug'urta asosidagi pensiya tizimi ilk bor Germaniyada yaratilgan bo'lib, "avlodlar birdamligi" prinsipiga asoslanadi, ya'ni hozirda ishlovchilar davlat pensiya fondiga ijtimoiy sug'urta badallari to'laydi va bu mablag'lar hisobidan pensionerlarga pensiya beriladi. Pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liqdir;

- EI mamlakatlarida shakllantirilgan pensiya ta'minoti tizimini ikki yirik modelga ajratish mumkin: pensiya ta'minotining (milliy) universal tizimi; sug'urta munosabatlari asosida shakllantirilgan sug'urtaviy pensiya tizimi;

- dunyoda pensiya tizimini isloh qilishning uchta modeli mavjud: birinchidan, majburiy pensiya sug'urtasi tizimi doirasida taqsimlovchi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ixtiyoriy va qo'shimcha (to'ldiruvchi) xarakterga ega ekanligini nazarda tutuvchi pensiya modeli; pensiya tizimining qayta taqsimlash prinsipining afzalliklari hamda uzoq muddatli majburiy jamg'arib boriladigan pensiyaning prinsiplari bilan birlashtiruvchi aralash pensiya modeli (Shvetsiya va Sharqiy Evropa mamlakatlari); taqsimlovchi pensiya tizimining o'rmini to'liq qoplovchi va pensiyani moliyalashtirishning jamg'arib boriladigan prinsipiga asoslangan pensiya modeli (Lotin Amerikasi mamlakatlari, jumladan Chili davlati);

- milliy pensiya tizimini isloh qilishning Chili tajribasi, alohida xarajatlar talab etilganiga qaramasdan muvaffaqiyatli chiqdi. Milliy va xorijiy analitiklar, Jahon banki ekspertlari, pensionerlar fikricha ushbu tizim samarali ishlamoqda va bu tajriba Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlari (Meksika) va Markaziy hamda Sharqiy Evropa davlatlari tomonidan ham ijobiy baholanib, joriy qilinmoqda.

## **II BOB. MILLIY PENSIYA TIZIMI VA XORIJIY MAMLAKATLAR PENSIYA TA'MINOTI AMALIYOTI TAHLILI**

### **2.1. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti amaliyoti va unga oid tendentsiyalar tahlili**

“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonunga ko'ra yoshga doir pensiyalar quyidagicha tasniflangan:

- umumiy belgilangan tartibdagi yoshga doir pensiya;
- ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiya;
- imtiyozli shartlarda tayinlanuvchi yoshga doir pensiyalar;
- muddatidan oldin tayinlanuvchi yoshga doir pensiyalar.

Ish staji to'liq bo'lmagan chog'dagi pensiyalar xodim belgilangan pensiya yoshiga etganda va davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajargan yoki unga tenglashtirilgan mehnat faoliyatida etti yildan kam bo'lmagan davr mehnat qilgan bo'lsa, bor stajga mutanosib ravishda tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari va urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Imtiyozli ravishda tayinlanuvchi pensiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- yoshidan qat'iy nazar pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro'yxati;
- umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati;
- umumiy belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, vazifalar va ko'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati;

– umumiy belgilangan yoshni bir yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqi;

– umumiy belgilangan pensiya yoshini 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar: erkaklar – ish staji kamida 20 yil bo’lganda; ayollar – ish staji kamida 15 yil bo’lganda ega bo’ladilar.

Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o’zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o’zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yohud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslar: erkaklar – 58 yoshga to’lganda va ish staji kamida 25 yil bo’lgan taqdirda; ayollar – 53 yoshga to’lganda va ish staji kamida 20 yil bo’lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo’ladilar.

Yoshidan qat’iy nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo’ladilar: a) kon sanoatidagi etakchi kasb egalari bo’lgan xodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo’lsalar; b) bevosita erosti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, kon-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko’mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to’liq ish kuni davomida band bo’lgan xodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo’lsalar; v) uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo’ysunuvidan qat’iy nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (yuqorida qayd etib o’tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko’ra uchish ishlaridan bo’shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini – erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo’lsalar); g) teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari; d) sportchilarning ayrim toifalari.

Ma’lumki, nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog’ligini yoki mehnat qobiliyatini yo’qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot

etgan boquvchining oilasiga, shuningdek, marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi.

Umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ta'kidlash joizki, pensiya miqdori ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, quyidagilardan tarkib topadi: pensiyaning tayanch miqdoridan; ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan; pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan. Pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilanadi:

- yoshga doir pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida;

- I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida;

- oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 50 foizi miqdorida;

- ota-onasidan judo bo'lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida.

Pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to'liq yil uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari quyidagicha oshiriladi:

- yoshga doir pensiyalar – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

- I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

- boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a'zosi uchun – boquvchining o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi.

Otasidan ham, onasidan ham judo bo'lgan (chin etim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini oshirish ota va ona ish haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, eng kam oylik ish haqining 8 barobari miqdori doirasida amalga oshiriladi.

Pensiyalarga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- I guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 150 foizi;
- II guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 125 foizi;
- ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- II guruh yolg'iz nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- 1941-1945-yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining – 30 foizi;
- vafoti harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalariga va yangi (qayta) nikohdan o'tmagan beva xotinlariga (beva erlariga) – eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga – xizmatlariga qarab – eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;
- yoshidan qat'iy nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlarga – eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- teatr-kontsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san'ati ijodiy xodimlari tayyorlovchi o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari va kontsertmeysterlariga, Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ro'yxatga ko'ra – eng kam oylik ish haqining – 50 foizi.

Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- ish stajini, shu jumladan, maxsus ish stajini tasdiqlaydigan hujjat;

- ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- ariza beruvchining jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi nusxasi (2005-yil 1-yanvardan keyin).

“O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida”gi Nizomga ko'ra, Pensiya jamg'armasi daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- a) majburiy to'lovlar va badallar:
  - belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari;
  - alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;
  - fuqarolarning sug'urta badallari;
  - jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari;
  - majburiy ajratmalar;
- b) boshqa to'lovlar.

Quyidagi 2.1-jadvalda Pensiya jamg'armasi daromadlari manbalarining so'nggi yillardagi stavka ko'rsatilgan.

**2.1-jadval**

**Pensiya jamg'armasi daromadlar manbalarining stavkasi<sup>45</sup>, foizda**

| Ko'rsatkichlar                                    | Yillar |      |      |      |      |      |
|---------------------------------------------------|--------|------|------|------|------|------|
|                                                   | 2012   | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 |
| Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi                   | 24,8   | 24,8 | 24,8 | 24,8 | 24,8 | 24,8 |
| Sug'urta badali stavkasi                          | 5,5    | 6,0  | 6,5  | 7,0  | 7,5  | 8,0  |
| Sotilgan mahsulotlar hajmidan ajratmalar stavkasi | 1,6    | 1,6  | 1,6  | 1,6  | 1,6  | 1,6  |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda Pensiya jamg'armasi daromadlar manbalarining stavkalarida katta o'zgarishlar bo'lmadi. Faqat sug'urta badali stavkasining oshib borishi kuzatildi. 2016-yilning 1-yanvaridan O'zbekistonda fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga o'tkaziladigan majburiy sug'urta badallari stavkasi 7 foizdan 7,5 foizga oshirilgan edi. 2017-yilning 1-yanvaridan fuqarolarning majburiy sug'urta badallari stavkasi 8% miqdorida belgilandi<sup>46</sup>. Bunda yuridik shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foiz miqdorida saqlab qolindi.

<sup>45</sup> www.pfri.uz. sayti ma'lumotlari.

<sup>46</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli Qarori bilan.

Belgilangan stavkalar asosida olingan daromadlarning manbalari miqdori va jamiga nisbatan ulushi to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi quyidagi jadvalda Pensiya jamg'armasi daromadlari 2017-yilda 19505,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2014-yilga nisbatan 1,5 martaga ortganligini ko'rish mumkin.

## 2.2-jadval

### Pensiya jamg'armasi daromadlarining tarkibiy tuzilishi<sup>47</sup>, mlrd. so'mda

| Ko'rsatkichlar                                                    | 2014-yil       |                                   | 2016-yil       |                                   | 2017-yil       |                                   |
|-------------------------------------------------------------------|----------------|-----------------------------------|----------------|-----------------------------------|----------------|-----------------------------------|
|                                                                   | mlrd. so'mda   | jami daromadlarga nisbatan foizda | mlrd. so'mda   | jami daromadlarga nisbatan foizda | mlrd. so'mda   | jami daromadlarga nisbatan foizda |
| <b>Jami daromadlar</b>                                            | <b>13013,7</b> | <b>100,0</b>                      | <b>18113,3</b> | <b>100,0</b>                      | <b>19505,1</b> | <b>100,0</b>                      |
| Yil boshida kutilayotgan qoldiq                                   | 1067,3         | 8,2                               | 2568,3         | 14,2                              | 2282,0         | 11,7                              |
| Daromadlar                                                        | 11946,4        | 91,8                              | 15545,0        | 85,8                              | 17223,1        | 88,3                              |
| <i>Shu jumladan:</i>                                              |                |                                   |                |                                   |                |                                   |
| Mehnat haqi fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar | 7299,5         | 56,1                              | 9474,0         | 52,3                              | 10226,0        | 52,4                              |
| Fuqarolarning ish haqi fondidan majburiy sug'urta badali          | 1877,2         | 14,4                              | 3235,0         | 17,9                              | 3993,9         | 20,5                              |
| Tovar (xizmat, ish) larning sotish hajmidan majburiy ajratmalar   | 1933,0         | 14,9                              | 1527,0         | 8,4                               | 1429,7         | 7,3                               |
| Soliqsiz tushumlar                                                | -              | -                                 | 18,0           | 0,1                               | 18,0           | 0,09                              |
| Boshqa daromadlar                                                 | 836,7          | 6,4                               | 1291,0         | 7,1                               | 1555,0         | 8,0                               |


Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida ish haqidani yagona ijtimoiy to'lov 2014-2017-yillarda o'rtacha 53,6 foizni tashkil qilgan. Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida sotilgan mahsulotlar hajmidan majburiy ajratmalar esa ushbu yillarda o'rtacha 10,2 foizni tashkil qilgan. Xulosa qilib aytganda, Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida ish haqidani yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha tushumlar ulushi salmoqli o'ringa ega.

<sup>47</sup> www.pfri.uz. sayti ma'lumotlari.

Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Soliq kodeksining 172-moddasida ko'rsatilgan ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish obyektidir.

Quyidagilar Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi: notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromatlari mustasno; yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Pensiya jamg'armasi mablag'larining sarflanishini quyidagi rasm orqali ifodalaymiz.



**2.1-rasm. Pensiya jamg'arma mablag'larining sarflanishi<sup>48</sup>**

Pensiya jamg'armasi xarajatlarini uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga to'lanuvchi pensiyalar;

<sup>48</sup> "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom.

2. Ijtimoiy nafaqalar;
3. Pensiya jamg'armasining boshqa xarajatlaridan iborat.

Birinchi guruhga daxldor xarajatlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga to'lanuvchi pensiyalardan tashkil topadi.

Ikkinchi guruhga daxldor xarajatlarni ijtimoiy nafaqalar tashkil qiladi. Ijtimoiy nafaqalar, o'z navbatida, quyidagi turlarga bo'linadi:

- bolalikdan nogironlarga nafaqalar;
- yoshga doir nafaqa;
- nogironlik nafaqasi;
- boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi;
- dafn marosimi uchun nafaqa;
- bola tug'ilganda beriladigan nafaqa;
- qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa.

Bugungi kunda Pensiya jamg'armasi mablag'larining sarflanish yo'nalishlarini quyidagi 2.3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

**2.3-jadval**

**Pensiya jamg'armasining xarajatlari tarkibi<sup>49</sup>**

| Ko'rsatkichlar                                                                                                     | 2014-yil       |                                   | 2016-yil       |                                   | 2017-yil       |                                   |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|-----------------------------------|----------------|-----------------------------------|----------------|-----------------------------------|
|                                                                                                                    | mlrd. so'mda   | jami xarajatlarga nisbatan foizda | mlrd. so'mda   | jami xarajatlarga nisbatan foizda | mlrd. so'mda   | jami xarajatlarga nisbatan foizda |
| <b>Xarajatlar jami</b>                                                                                             | <b>13013,7</b> | <b>100,0</b>                      | <b>18113,3</b> | <b>100,0</b>                      | <b>19505,1</b> | <b>100,0</b>                      |
| Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari                                                                    | 11191,9        | 86,0                              | 14779,6        | 81,6                              | 16629,9        | 85,2                              |
| Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari                                                                      | 426,6          | 3,3                               | 484,3          | 2,7                               | 534,5          | 2,7                               |
| Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar | 29,1           | 0,2                               | 152,1          | 0,8                               | 204,3          | 1,0                               |
| Boshqa xarajatlar                                                                                                  | 2,4            | 0,02                              | 3,0            | 0,02                              | 10,0           | 0,05                              |
| Yil oxirida qoldiq mablag'lar                                                                                      | 1363,7         | 10,5                              | 2694,3         | 14,9                              | 2126,4         | 11,0                              |

<sup>49</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr PQ-1675-sonli, 2012-yil 25-dekabr PQ-1887-sonli, 2013-yil 25-dekabrda PQ-2099-sonli, 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli, 2015-yil 22-dekabrda PQ-2455-sonli Qarorlari asosida tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimining 2014, 2016 va 2017-yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida dinamik o'zgarish xususiyatiga egadir. Aksincha, Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish xususiyatiga ega.

Tahlil obyektimiz bo'lmish Toshkent shahri Yunusobod tumanida bugungi kunda Pensiya jamg'armasi hisobidan pensiya va ijtimoiy nafaqalar oluvchilar soni 2016-yilning 1-may holatida ijtimoiy nafaqa oluvchilar pensiya va nafaqalarning turlari bo'yicha quyidagilarni tashkil etadi (2.4-jadval).

Toshkent shahri Yunusobod tumanida pensionerlar soni 42149 kishini tashkil etib, uning asosiy qismi yoshga doir pensiya oluvchilar hissasiga to'g'ri kelmoqda. 2015-yilning birinchi 4 oyi davomida to'lab berilgan pensiyalarning 87,0 foizini qonunchilik bilan belgilangan yoshga doir pensiyalar, 10,0 foizini nogironlik pensiyalari, 3,0 foizini boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari tashkil qiladi.

## 2.4-jadval

### **Pensiya jamg'armasining Toshkent shahri Yunusobod tumani bo'limi tomonidan tayinlangan va to'langan pensiyalar to'g'risida ma'lumot<sup>50</sup>**

| №  | Ko'rsatkichlar                        | 2016-yil 1-may holatiga |        |
|----|---------------------------------------|-------------------------|--------|
|    |                                       | soni                    | Ulushi |
| 1. | Jami pensiyalar, sh.j.                | 42149                   | 100,0  |
| 2. | Yoshga doir pensiyalar                | 36687                   | 87,0   |
| 3. | Nogironlik pensiyalari                | 4235                    | 10,0   |
| 4. | Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari | 1227                    | 3,0    |

Ta'kidlash joizki, o'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga etmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar. O'gay o'g'il va o'gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar. O'gay ota va o'gay ona, agar vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) 18 yoshga to'lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo'lsalar, haqiqiy ota va ona singari

<sup>50</sup> Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tumani bo'limi ma'lumotlari asosida tuzildi.

pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Toshkent shahri Yunusobod Pensiya jamg'armasi hisobidan pensiyalar va nafaqa oluvchilar jami 42149 nafaqa fuqaroni tashkil etgan bo'lsa, shundan 28099 kishini ayollar tashkil etmoqda. Bir oylik pensiyalarni umumiy miqdori 234474055000 so'mni, pensiyalarning o'rtacha miqdori 556298 so'mni tashkil etmoqda (2.5-jadval).

## 2.5-jadval

### Pensiya jamg'armasi Yunusobod tumani bo'limi tomonidan 2016-yil 1-may holatida tayinlangan pensiyalar va nafaqalar to'g'risida ma'lumot<sup>51</sup>

| Pensiya va ijtimoiy nafaqa turi hamda toifalari                                                                            | Qator raqami | Soni, kishi |                  | Bir oylik pensiyalarni umumiy miqdori, ming so'mda | Pensiyalarni o'rtacha miqdori, so'mda | Hisobot davrida tayinlangan pensiyalar |                                             |                                       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|-------------|------------------|----------------------------------------------------|---------------------------------------|----------------------------------------|---------------------------------------------|---------------------------------------|
|                                                                                                                            |              | Jami        | Shundan, ayollar |                                                    |                                       | soni, kishi                            | Bir oylik pensiyalarni miqdori, ming so'mda | pensiyalarni o'rtacha miqdori, so'mda |
| Bo'lim hisobida turgan pensionerlar - jami                                                                                 | 1            | 42149       | 28099            | 234474055                                          | 556298                                | 768                                    | 3414206                                     | 444558,1                              |
| <b>I. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq</b>                     |              |             |                  |                                                    |                                       |                                        |                                             |                                       |
| Jami pensionerlar                                                                                                          | 2            | 42039       | 28098            | 233951260                                          | 556510,1                              | 768                                    | 3414206                                     | 444558,1                              |
| 1. Yoshga doir pensiyalar                                                                                                  | 3            | 36687       | 26165            | 209484041                                          | 571003,5                              | 686                                    | 3155292                                     | 459955,17                             |
| 2. Nogironlik bo'yicha pensionerlar                                                                                        | 10           | 4138        | 1933             | 20493283                                           | 495246,1                              | 44                                     | 157810                                      | 358659,64                             |
| 3. Boquvchisini yo'qotganlik pensiya-lar                                                                                   | 23           | 1214        | X                | 3973936                                            | 327342,4                              | 38                                     | 101104                                      | 266061,95                             |
| <b>II. "Xarbiy xizmatchilar pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq</b>                                           |              |             |                  |                                                    |                                       |                                        |                                             |                                       |
| Jami pensionerlar                                                                                                          | 32           | 110         | 1                | 522795                                             | 475268,4                              | 0                                      | 1                                           | 0                                     |
| 1.. Nogironlik buyicha pensiyalar                                                                                          | 33           | 97          | 1                | 482838                                             | 497771,1                              | 0                                      | 1                                           | 0                                     |
| 2. Boquvchisini yo'qotganligi sababli                                                                                      | 46           | 13          | X                | 39957                                              | 307363,4                              | 0                                      | 1                                           | 0                                     |
| <b>III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 aprel 107-sonli qaroriga muvofiq ijtimoiy nafaqalar</b> |              |             |                  |                                                    |                                       |                                        |                                             |                                       |
| Jami ijtimoiy nafaqa oluvchilar                                                                                            | 59           | 1457        | 654              | 3465251                                            | 237834,7                              | 69                                     | 138191                                      | 200276,09                             |
| 1. Bolalikdan nogironlar jami                                                                                              | 60           | 1254        | 568              | 3186672                                            | 254120,6                              | 34                                     | 86608                                       | 254730                                |
| 2. Boshqa toifadagi nogironlar jami                                                                                        | 65           | 55          | 25               | 84407                                              | 153468                                | 15                                     | 23447                                       | 156310                                |
| 3. 65 yoshga etgan erkaklar va 60 yoshga etgan ayollar                                                                     | 69           | 76          | 61               | 118796                                             | 156310                                | 12                                     | 18757                                       | 156310                                |
| 4. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqalar                                                                                     | 70           | 71          | X                | 73813                                              | 103962,1                              | 7                                      | 7816                                        | 111650                                |

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tumani bo'limi hisobot ma'lumotlari asosida.

Bu esa o'z navbati davlatimiz ijtimoiy siyosati negizida qariya va keksa yoshdagi aholi, boquvchisini yo'qotgan oilalar, nogiron fuqarolarni ijtimoiy himoyasi va ta'minotini amalga oshirish uchun katta miqdordagi davlat sarflari mavjudligidan dalolat bermoqda.

## **2.2. Evropa Ittifoqi va Lotin Amerikasi mamlakatlari pensiya ta'minoti amaliyoti**


EI mamlakatlarining ijtimoiy himoya tizimi xususiyatlari bo'yicha olimlar shartli ravishda 3 guruhga bo'lingan:

- sug'urta tizimi ustun bo'lgan mamlakatlar, ularda nafaqa va to'lovlar miqdori shaxsiy sug'urta badallari bilan bog'liq – davlat o'z zimmasiga fuqarolarining daromadlari chegaraviy qiymatlardan tushib ketmasligini nazorat qiladi va bu narsa u oldin qancha daromad olganidan yoki sug'urta uchun qancha pul to'plaganidan qat'i nazar amalga oshiriladi;

- sug'urta tamoyillariga kamroq rioya qiladigan mamlakatlar, ya'ni ularda nafaqa va to'lovlar miqdori shaxsiy ehtiyojlarga ko'proq mos keladi, moliyalashtirish esa, asosan, soliq fondlari orqali amalga oshiriladi – ijtimoiy himoya sug'urta bilan sust bog'langan bo'ladi. Ijtimoiy sohani moliyalashtirishda davlat byudjetining ahamiyati katta. Ijtimoiy to'lov va nafaqalar bir xil taqsimlanadi;

- ijtimoiy nafaqa tizimi rivojlanish bosqichidagi mamlakatlar.

Ijtimoiy himoyaning 4 ta asosiy modeli etakchilik qiladi. Buni quyidagi rasm ma'lumotlarida ko'rish mumkin:



**2.2-rasm. Ijtimoiy himoyaning asosiy modellari<sup>52</sup>**

<sup>52</sup> Europäische Kommission. Soziale Sicherheit in Europa. - Luxemburg, 1995. - S. 1995; Hanesch W. Soziale Sicherung im europäischen Vergleich // Aus Politik und Zeitgeschichte. - Bd.34-35/98. - S. 3-10.

Ijtimoiy himoyaning kontinental yoki Bismark modelida ijtimoiy himoya darajasi bilan kasbiy faoliyat davomiyligi o'rtasida qat'iy aloqa o'rnatiladi. Uning asosida ijtimoiy sug'urta yotadi va unga doir xizmatlar sug'urtalangan shaxslar hamda ish beruvchilarning badallari hisobiga moliyalashtiriladi. Ushbu model asosida pensiya fondlarining amal qilishini ko'zda tutuvchi avlodlar birdamligi prinsipi yotadi.

Ijtimoiy himoyaning Beveridj modeli Evropada Buyuk Britaniya va Irlanidiya tomonidan taqdim etilgan. Uning asosida ingliz iqtisodchisi U.Beveridj tomonidan 1942-yilda qilingan ma'ruza g'oyasi yotadi. Ushbu model quyidagi prinsiplarga asoslanadi: moddiy yordamga muhtoj fuqarolarning barcha toifalariga tegishli bo'lgan ijtimoiy himoya tizimining umumiylik prinsipi; ijtimoiy xizmatlar va to'lovlarning bir xilligi va uyg'unligi prinsipi (pensiya, moddiy yordam va tibbiyot xizmatlari miqdorining hamda ushbu xizmatlarni taqdim etish shart-sharoitlarining bir xilligi). Ushbu modelning asosi hisoblangan adolatli-taqsimlovchi prinsipi milliy birdamlikni nazarda tutadi. Bunda ijtimoiy himoya tizimining moliyalashtirilishi sug'urta badallari hisobidan ham, soliqlar hisobidan ham amalga oshiriladi.

EI mamlakatlarida keksa yoshdagi aholiga turlicha e'tibor ko'rsatiladi. Masalan, Shvesiyada har bir fuqaroga bir xilda ijtimoiy yordam ko'rsatilishi ta'minlangan, ya'ni ijtimoiy xizmatlar turidan foydalanishi kafolatlangan<sup>53</sup>. Shvesiyada fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini konstitutsion himoya qilish 1982-yilda qabul qilingan "Ijtimoiy ta'minot haqida"gi qonunda o'z aksini topgan. Shvesiyada keksa yoshdagi insonlarni parvarish qilish 2 xil usulda amalga oshiriladi. "Yopiq usulda" (qariyalar uyida) va "ochiq usulda" ( uy sharoitida parvarishlash). Ochiq usuldagi parvarishlash tizimi 1970-yildan juda keng tatbiq qilindi, u, asosan, keksa yoshdagi insonlarga yordam ko'rsatish, ya'ni ovqatini pishirish, uyini tozalash, xaridlar qilish va h.k larni o'z ichiga oldi.

Buyuk Britaniyada keksa yoshdagi insonlar va nogironlar uchun uy sharoitida yashash uchun hamma sharoitlar yaratilgan va u birinchi navbatda ijtimoiy yordam ko'rsatish turlarining nostatsionar shakllarining keng ravishda taqdim qilinishi hisobiga

---

<sup>53</sup> Xashimov P.Z. Социальная защита населения в Швеции. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017-yil 15-noyabr. – Toshkent: "Universitet", 2017. 69-b.

amalg oshiriladi. Keksalarga uy sharoitida ko'rsatilayotgan ijtimoiy va tibbiy yordam davlat ijtimoiy siyosatining muhim elementi hisoblanadi, chunki bu narsa ularning yolg'izligi yoki hayotga bo'lgan qiziqishini so'nishini oldini olish bilan bog'liq muammolarni echishga va atrofdagilar bilan muloqotning tiklanishiga sabab bo'ladi.

Germaniya pensiya ta'minoti tizimi "avlodlar birdamligi" prinsipiga asoslangan bo'lib, pensiya ta'minotining asosiy qismi sug'urta badallari hisobidan qoplanadi. Sug'urta badallari ish beruvchilar va sug'urtalangan shaxslar tomonidan teng ulushlarda to'lanadi va uning miqdori davlat tomonidan belgilanadi<sup>54</sup>. Germaniya davlat pensiya ta'minoti tizimini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- majburiy davlat pensiya sug'urtasi (ishchilar va xizmatchilar uchun qonun bilan belgilangan pensiya sug'urtasi; davlat apparatida ishlaydigan davlat xizmatchilarining pensiya sug'urtasi; fermerlar va ularning oilasi uchun keksalik davrida davlat tomonidan beriladigan yordam; turli kasb egalarining pensiya ta'minoti (shifokorlar, arxitektorlar, advokatlar, notariuslar va h.k.);

- ishlab chiqarish pensiya sug'urtasi (ushbu masala korxona va firma rahbarlarining ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladi). Tashkilotlar tomonidan pensiyalarni taqdim qilish tizimi Kasaba uyushmalari va ish beruvchilar Assotsiatsiyasi o'rtasidagi tarifli kelishuvni nazarda tutadi. Germaniyada deyarli ishchilarning yarmi korxonalar bilan nodavlat pensiya ta'minoti bo'yicha shartnomalarga ega;

- xususiy sug'urtaga asoslangan pensiya ta'minoti. Bunda xususiy kapital yaratishning namunaviy shakli bo'lib, mablag'larni jamg'arish maqsadida hayot sug'urtasi bo'yicha shartnoma tuzish hisoblanadi.

Germaniyada barcha banklar huzurida nodavlat pensiya fondi tashkil etilgan va mijozlarning pul mablag'lari ushbu fondga joylashtiriladi.

Umuman olganda, Germaniyada fuqarolarni keksalikda ijtimoiy himoya qilish majburiy pensiya sug'urtasi zimmasiga yuklatilgan. Germaniyada 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan jami aholining 78 foizi sug'urtalangan shaxslar hisoblanadi<sup>55</sup>.

---

<sup>54</sup> Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации. Монография. – Курган: "КТУ", 2013. – С. 27.

<sup>55</sup> Зырянова Т.В. Кот Е.М. Зарубежный и отечественный опыт регулирования пенсионной системы. – Екатеринбург: «Финансы и кредит», №2 (170), 2007. – С. 28.

Germaniyada majburiy pensiya sug'urtasi 2 ga bo'linadi:

- davlat xizmatchilarining pensiya ta'minoti – federal daraja (BFA);
- ishchilarning pensiya ta'minoti – hududiy daraja (LVA).

Ta'kidlash joizki, Germaniyada davlat ijtimoiy sug'urtaning rivojlangan tizimi amal qiladi. Ushbu tizim fuqarolarni turli xil kasalliklardan, ishsizlikdan, shuningdek, keksalik davrida himoya qilinishini kafolatlaydi. Davlat pensiya sug'urtasi Germaniya ijtimoiy sug'urta tizimining tarkibiy qismi bo'lib, "Deutsche Rentenversicherung" deb nomlangan. Ushbu tashkilot pensiyani hisoblash va to'lash (Rente) bilan shug'ullanadi. Germaniyada fuqarolar mehnat faoliyati boshlangandan so'ng davlat pensiya sug'urta tizimida avtomatik ravishda sug'urtalangan shaxsga aylanadi.

Fransiya pensiya tizimi ham "taqsimlovchi", ya'ni "avlodlar birdamligi" prinsipiga asoslangan bo'lib, bunda pensionerlarning pensiyalari iqtisodiy faol aholi to'lovlari hisobidan shakllanuvchi daromadlar hisobidan amalga oshiriladi<sup>56</sup>. Fuqarolarning pensiya olishi mehnat stajiga bog'liqdir. Fransiya pensiya tizimining asosiy xususiyati shundaki, bu tizim ikki asosiy prinsipga tayanadi:

- jamg'arib boriladigan pensiyalarni sug'urtalash – bunday holatda pensiyalar kishi hayotining butun umri davomida to'plab borgan mablag'lari hisobidan to'lanadi;
- avlodlar birdamligi – bunda pensiyalar ishlayotgan fuqarolarning ajratmalari hisobidan to'lanadi.

Fransiyada majburiy jamg'arib boriladigan pensiya fondi mavjud emas, biroq kapitalizatsiya fondi mavjud bo'lib, bu fondga har bir fuqaro o'zi uchun ma'lum miqdordagi pul mablag'larini jamg'arib boradi.


Fransiya pensiya tizimining o'ziga xosligi uning tarkibida xilma-xil alohida pensiya dasturlarining ko'pligidir<sup>57</sup>. Fransiya pensiya tizimi boshqa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlari pensiya tizimlari kabi 3 pog'onali bo'lsada, uning birinchi va ikkinchi bo'g'inlarining davlat majburiy pensiyasi tizimi tarkibida ekanligi bilan boshqa tizimlardan farqlanadi. Ma'lumki, Jahon bankining

<sup>56</sup> Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu. Pensiya ta'minotining xorij tajribalari va xususiyatlari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2016. [www.interfinanse.uz](http://www.interfinanse.uz).

<sup>57</sup> Социальное обеспечение во Франции. – М. Агентства по развитию и координации международных отношений. 2014. [www.adecri.org](http://www.adecri.org). – С. 17-25.

halqaro tasnifi bo'yicha pensiya tizimining 2-pog'onasini davlat va xususiy shakllardagi majburiy kasbiy pensiya dasturlari tashkil etadi.

Fransiyada yollanma ishchilar uchun umumiy pensiya tizimi amal qiladi. Bu tizimga Fransuz iqtisodiyoti xususiy sektoridagi faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarda yollanib ishlovchilar tegishlidir. Ular sug'urta badali to'lovchilar hisoblanadi va iqtisodiy faol aholining qariyb 75 foizini tashkil qiladi. Ushbu tizimda yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari va ijtimoiy pensiyalar amal qiladi (2.3-rasm).



**2.3-rasm. Fransiyada pensiya turlari<sup>58</sup>**

Umuman olganda, Fransiyada pensiyalar bazaviy (une retraite de base) va qo'shimcha (retraite complémentaire) turlarga bo'linadi. Fuqarolarning bazaviy va qo'shimcha pensiya sug'urtasidagi ishtiroki majburiydir. Bazaviy pensiya tayinlashda fuqaroning pensiyaga chiqish oldidan oxirgi 11 yillik mehnat faoliyatidagi oylik ish haqi hisobga olinadi. Bunda ushbu davrdagi yuqori maosh miqdorlari e'tiborga olinadi (shuningdek, bazaviy pensiyalarni tayinlashda fuqarolarning hayotiy holatlari, jumladan, oiladagi farzandlar soni, nogironligi mavjudligi va h.k.). Qo'shimcha pensiya – bu fuqaroning butun hayoti davomidagi mehnat faoliyatidagi ajratmalaridir.

El mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari 7-12 foiz atrofida tebranadi. Ya'ni, mamlakat YaIMning 7-12 foizi pensiya ta'minoti tizimi xarajatlariga safarbar etiladi. Ta'kidlash joizki, Germaniyada 2015-yilda YaIMning 10,5 foizi pensiya ta'minoti tizimi xarajatlari sarflangan. Bu ko'rsatkich mamlakat YaIMning absolyut miqdorlarda berilganda pensiya tizimiga qilingan xarajatlari hajmi bo'yicha

<sup>58</sup> <http://sudelafrance.com/moi-prakticheskie-zanyatiya/istoriya-o-tom-kak-frantsuzi-poluchayut-svoi-pensii.html>.

aksariyat mamlakatlarni ortda qoldiradi (2.7-jadval).

**2.7-jadval**

**Evropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari,  
YaIMga nisbatan foizda<sup>59</sup>**

| <b>Mamlakatlar</b> | <b>2010-y.</b> | <b>2015-y.</b> | <b>2020-y.</b> | <b>2030-y.</b> | <b>2040-y.</b> | <b>2050-y.</b> | <b>2060-y.</b> |
|--------------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|
| Avstriya           | 14,1           | 14,4           | 15,1           | 16,7           | 16,5           | 16,4           | 16,1           |
| Belgiya            | 11,0           | 11,9           | 13,1           | 15,5           | 16,5           | 16,7           | 16,6           |
| Chexiya            | 9,1            | 8,6            | 8,7            | 8,9            | 9,7            | 11,0           | 11,8           |
| Daniya             | 10,1           | 10,4           | 10,8           | 10,7           | 10,3           | 9,6            | 9,5            |
| Estoniya           | 8,9            | 7,8            | 7,7            | 8,2            | 8,1            | 8,0            | 7,7            |
| Finlandiya         | 12,0           | 12,8           | 14,0           | 15,6           | 15,2           | 14,9           | 15,2           |
| Fransiya           | 14,6           | 14,4           | 14,4           | 14,9           | 15,2           | 15,1           | 15,1           |
| Germaniya          | 10,8           | 10,5           | 10,9           | 12,0           | 12,7           | 13,0           | 13,4           |
| Gresiya            | 13,6           | 14,1           | 13,7           | 14,1           | 14,9           | 15,4           | 14,6           |
| Vengriya           | 11,9           | 11,9           | 11,5           | 11,1           | 12,1           | 13,5           | 14,7           |
| Irlandiya          | 7,5            | 8,3            | 9,0            | 9,0            | 10,0           | 11,4           | 11,7           |
| Italiya            | 15,3           | 14,9           | 14,5           | 14,5           | 15,6           | 15,7           | 14,4           |
| Lyusemburg         | 9,2            | 9,9            | 10,8           | 14,0           | 16,5           | 18,1           | 18,6           |
| Niderlandiya       | 6,8            | 6,8            | 7,4            | 9,1            | 10,4           | 10,4           | 10,4           |
| Polsha             | 11,8           | 10,7           | 10,9           | 10,9           | 10,3           | 10,0           | 9,6            |
| Portugaliya        | 12,5           | 13,3           | 13,5           | 13,2           | 13,1           | 13,1           | 12,7           |
| Slovakiya          | 8,0            | 8,1            | 8,6            | 9,5            | 10,6           | 12,2           | 13,2           |
| Sloveniya          | 11,2           | 11,8           | 12,2           | 13,3           | 15,8           | 17,9           | 18,3           |
| Ispaniya           | 10,1           | 10,4           | 10,6           | 10,6           | 12,3           | 14,0           | 13,7           |
| Shvetsiya          | 9,6            | 9,7            | 9,6            | 10,1           | 10,2           | 9,9            | 10,2           |
| Buyuk Britaniya    | 7,7            | 7,4            | 7,0            | 7,7            | 8,2            | 8,2            | 9,2            |
| EI27               | 10,8           | 10,9           | 11,1           | 11,9           | 12,6           | 13,1           | 13,2           |

EI mamlakatlarida davlat va xususiy milliy pensiya tizimi xarajatlarida bir muncha katta farq kuzatiladi. Masalan, 2013-yilda Gresiyada davlat pensiyasiga qilingan xarajatlari YaIMning 16,2 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Niderlandiyada 6,9 foizga teng bo'lgan (2.8-jadval).

Niderlandiyada pensiya fondlari aktivlari YaIMning 148,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Gresiyada 0,1 foizni tashkil qilgan. 2013-2060-yillarda davlat pensiya tizimi xarajatlarning bir muncha o'sish dinamikasi Lyuksemburgda (42,6%), Maltada (33,3%) va Sloveniyada (29,7%) kuzatiladi va bu holat ushbu mamlakatlarda davlat pensiya ta'minotiga bo'lgan xarajatlarning yuqoriligini hamda o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimi sustligini ko'rsatadi.

<sup>59</sup> Недосекин А., Могилко С.. Реформирование система пенсионного обеспечения: мировой опыт. <http://pensionreform.ru/58599> - internet manbasi asosida tayyorlangan

2.8-jadval

**Evropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya tizimiga xarajatlar va pensiya fondlarining aktivlari<sup>60</sup>**

| Mamlakatlar     | Davlat pensiya tizimiga xarajatlar (YaIMga nisbatan foizda hisobida) |          |          |          | Xususiy pensiya tizimiga xarajatlar (YaIMga nisbatan foizda hisobida) |          |          |            | Pensiya fondlarining aktivlari (YaIMga nisbatan foizda hisobida) |
|-----------------|----------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|-----------------------------------------------------------------------|----------|----------|------------|------------------------------------------------------------------|
|                 | 2003 yil                                                             | 2013 yil | 2040 yil | 2060 yil | 2000 yil                                                              | 2005 yil | 2011 yil | O'rtachasi |                                                                  |
| Gresiya         | 11,1                                                                 | 16,2     | 14,1     | 14,3     | 0,5                                                                   | 0,5      | 0,4      | 0,5        | 0,1                                                              |
| Italiya         | 14,1                                                                 | 15,7     | 15,8     | 13,8     | 0,3                                                                   | 0,3      | 0,4      | 0,3        | 6                                                                |
| Fransiya        | 12,7                                                                 | 14,9     | 13,8     | 12,1     | 0,3                                                                   | 0,3      | 0,4      | 0,3        | 2,9                                                              |
| Avstriya        | 14,2                                                                 | 13,9     | 14,7     | 14,4     | 0,5                                                                   | 0,5      | 0,7      | 0,6        | 5,7                                                              |
| Portugaliya     | 11,2                                                                 | 13,8     | 14,8     | 13,1     | 0,4                                                                   | 0,6      | 0,6      | 0,5        | 15,8                                                             |
| Finlyandiya     | 10,8                                                                 | 12,9     | 13,6     | 12,9     | 0,3                                                                   | 0,2      | 0,3      | 0,3        | 75,7                                                             |
| Sloveniya       | 10,5                                                                 | 11,8     | 14,3     | 15,3     | -                                                                     | -        | -        | -          | 3,9                                                              |
| Belgiya         | 11,1                                                                 | 11,8     | 15,2     | 15,1     | 1,4                                                                   | 1,5      | 1,2      | 1,4        | 10,1                                                             |
| Ispaniya        | 8,9                                                                  | 11,8     | 11,9     | 11,0     | -                                                                     | -        | -        | -          | 13,9                                                             |
| Vengriya        | 9,1                                                                  | 11,5     | 9,6      | 11,4     | -                                                                     | -        | -        | -          | 4                                                                |
| Polsha          | 13,8                                                                 | 11,3     | 10,0     | 10,7     | -                                                                     | -        | -        | -          | 19,3                                                             |
| Xorvatiya       | -                                                                    | 10,8     | 7,8      | 6,9      | -                                                                     | -        | -        | -          | -                                                                |
| Daniya          | 10,9                                                                 | 10,3     | 8,0      | 7,2      | 2,0                                                                   | 2,3      | 4,7      | 3,0        | 42,1                                                             |
| Germaniya       | 13,1                                                                 | 10,0     | 12,2     | 12,7     | 0,8                                                                   | 0,8      | 0,8      | 0,8        | 6,1                                                              |
| Bolgariya       | -                                                                    | 9,9      | 8,4      | 9,4      | -                                                                     | -        | -        | -          | -                                                                |
| Malta           | 8,2                                                                  | 9,6      | 9,7      | 12,8     | -                                                                     | -        | -        | -          | -                                                                |
| Kipr            | 6,1                                                                  | 9,5      | 9,4      | 9,3      | -                                                                     | -        | -        | -          | -                                                                |
| Ljuksemburg     | 10,1                                                                 | 9,4      | 12,7     | 13,4     | m/y                                                                   | 0,6      | 0,6      | 0,6        | 2,1                                                              |
| Chexiya         | 8,0                                                                  | 9,0      | 9,0      | 9,7      | 0,2                                                                   | 0,2      | 0,6      | 0,3        | 7,3                                                              |
| Shvesiya        | 11,4                                                                 | 8,9      | 7,5      | 7,5      | 1,8                                                                   | 2,1      | 2,6      | 2,2        | 37,1                                                             |
| Ruminiya        | 5,9                                                                  | 8,2      | 8,4      | 8,1      | -                                                                     | -        | -        | -          | -                                                                |
| Slovakiya       | 7,2                                                                  | 8,1      | 8,1      | 10,2     | -                                                                     | -        | -        | -          | 9,8                                                              |
| Latviya         | 7,2                                                                  | 7,7      | 5,4      | 4,6      | -                                                                     | -        | -        | -          | -                                                                |
| Buyuk Britaniya | 10,2                                                                 | 7,7      | 8,4      | 8,4      | 6,0                                                                   | 4,7      | 4,6      | 5,1        | 99,6                                                             |
| Estoniya        | 5,9                                                                  | 7,6      | 6,9      | 6,3      | -                                                                     | -        | -        | -          | 9,5                                                              |
| Irlandiya       | 4,7                                                                  | 7,4      | 10,0     | 8,4      | 0,8                                                                   | 0,9      | 0,8      | 0,8        | 52,3                                                             |
| Litva           | 6,7                                                                  | 7,2      | 9,4      | 7,5      | -                                                                     | -        | -        | -          | -                                                                |
| Niderlandiya    | 12,0                                                                 | 6,9      | 8,3      | 7,8      | 4,8                                                                   | 5,2      | 5,8      | 5,3        | 148,7                                                            |

Lotin Amerikasi mamlakatlari ichida Chilida pensiya ta'minoti o'ziga xos xususiyatga ega. Chilida pensiya tizimi 1924-yilda Milliy ijtimoiy sug'urta fondini shakllantirish asosida joriy qilingan. 1920-1950-yillarda mamlakatda 3 ta pensiya kassalari amal qilgan. Bular bir muncha yuqori maosh oluvchi ishchilarning pensiya ta'minoti, politsiyachilarning pensiya ta'minoti fondi va qurolli kuchlarning pensiya ta'minoti fondi. 1960-yillarda pensiya kassalari soni oshib, 185 tani tashkil qildi,

<sup>60</sup> Eurostat. Social protection database. URL: <http://ec.europa.eu/eurostat/web/social-protection/data/> database (data obrashcheniya: 20.05.2017); OECD (2015), Pensions at a Glance 2015: OECD and G20 indicators, OECD Publishing. URL: <http://www.oecd.org/publications/oecd-pensions-at-a-glance-19991363.htm> (data obrashcheniya: 20.05.2017).

ularning 150 tasi pensiya ta'minotining individual sxemasiga mo'ljallangan edi. Shu sababdan aholi zimmasidagi "soliq yuki" o'sib bordi. Chilida pensiya tizimining normal faoliyat ko'rsatishi uchun Hukumat tomonidan pensiya fondiga har yili YaIMning 2 foizi miqdorida mablag'lar o'tkazilgan.

Umuman olganda, taqsimlovchi pensiya tizimi ("Pay-as-you-go") tarkibiy jihatdan o'zining iqtisodiy nochorligini ko'rsatdi. Masalan, 1974-1980-yillarda pensiya tizimidagi o'rtacha yillik defitsit 280000 ming chili pesosini tashkil qilgan va bu ko'rsatkich mamlakat YaIMning 2 foiziga tengdir (2.9-jadval).

**2.9-jadval**

**Chili pensiya tizimi daromadlari va xarajatlari dinamikasi<sup>61</sup>**

| Yillar | Qiymat hajmi, mln. Chili pesosida |            |          | YaIMdagi ulushi, foizda |            |          |
|--------|-----------------------------------|------------|----------|-------------------------|------------|----------|
|        | Daromadlar                        | Xarajatlar | Defitsit | Daromadlar              | Xarajatlar | Defitsit |
| 1974   | 344523                            | 698866     | -354343  | 3,2                     | 6,2        | -3,1     |
| 1975   | 310985                            | 422261     | -111276  | 3,4                     | 4,6        | -1,2     |
| 1976   | 360509                            | 662877     | -302368  | 3,4                     | 6,2        | -2,8     |
| 1977   | 454651                            | 831933     | -377282  | 3,6                     | 6,7        | -3,0     |
| 1978   | 556642                            | 1027681    | -471039  | 3,7                     | 6,8        | -3,1     |
| 1979   | 937063                            | 1241874    | -304811  | 5,2                     | 6,9        | -1,7     |
| 1980   | 1017362                           | 1336172    | -318810  | 5,5                     | 7,2        | -1,7     |

Natijada 1980-yillarning boshida Chili pensiya tizimi moliyaviydan to ma'muriy-huquqiy muammolarga duch kela boshladi. Mamlakat pensionerlarining 70 foizi eng kam pensiya olish bilan cheklandi<sup>62</sup>.

1983-yilda Chili pensiya tizimi evolyutsiyasining uchinchi bosqichi boshlandi. Bu davrda mavjud ijtimoiy sug'urta tizimining qo'llab-quvvatlanishi natijasida individual jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlari joriy qilindi.

AQSh pensiya tizimi davlat va xususiy pensiya ta'minoti asosida amal qiladi. AQShning Arizona universiteti professori J.Pengning qayd etishicha, "AQShda ishlovchilarning pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'minoti, odatda, uch manba: ijtimoiy ta'minot, ish beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan pensiyalar, shuningdek, shaxsiy omonatlardan iborat bo'ladi. Ushbu uch manba birgalikda fuqarolarning

<sup>61</sup> Arenas de Mesa A., Behrman J., Mitchell O., Todd P. The Chilean Pension Reform Turns 25: Lessons from the Social Protection Survey. University of Pennsylvania, USA. July 2006. – p.30.

<sup>62</sup> <https://mgimo.ru/upload/iblock/.pdf>.

qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlab berishi lozim bo'ladi"<sup>63</sup>. AQShda fuqarolarning pensiyaga chiqishida moddiy ta'minlanganlikning ikki darajasi amal qiladi. Birinchisi, pensiyaga chiqishda daromadning yashash uchun zarur bo'lgan eng asosiy xarajatlar, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va yashash joyi uchun etarli bo'lishi bo'lsa, ikkinchisi, moliyaviy xavfsizlikning pensionerning pensiyaga chiqqunicha bo'lgan davr bilan pensiyaga chiqqandan keyingi davr daromadlari taqqoslanganda daromad miqdori pensionerning hayot darajasidan lazzatlanishi uchun etarli miqdorda bo'lishini anglatadi.

AQSh fuqarolari uch turdagi pensiyalar olish imkoniga ega. Jumladan<sup>64</sup>: davlat pensiyalari (taqsimlovchi), (ijtimoiy pensiyalar); korporativ pensiyalar, ya'ni ish joyi bo'yicha xususiy-jamoaviy pensiyalar; shaxsiy pensiya hisobraqamini ochish yo'li bilan xususiy yakka tartibdagi pensiyalar.

Davlat pensiyalari tizimida pensionerlar hozirda ishlayotganlar hisobidan to'lanadigan sug'urta badallari hisobidan pensiya olishadi, ya'ni "avlodlar birdamligi" prinsipi amal qiladi. AQShdagi eng yirik davlat pensiya tizimi – bu Umumiy Federal dastur (Social Security) hisoblanib, iqtisodiyotning xususiy sektorida band bo'lganlarning barchasini qamrab oladi<sup>65</sup> va ushbu tizim "taqsimlovchi" prinsip asosiga qurilgan. Umumiy Federal dastur 1935-yilda qabul qilingan "Ijtimoiy sug'urta to'g'risida"gi qonunga muvofiq amal qiladi<sup>66</sup> va fuqarolarning minimal pensiyasini ta'minlaydi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga esa davlat va xususiy pensiya dasturlari tegishlidir. Davlat jamg'arib boriladigan dasturlar hukumat va mahalliy organlarda ishlovchi fuqarolarning pensiya ta'minotini amalga oshiradi. Iqtisodiyotning xususiy sektorida band bo'lganlar esa ish joyida tashkil etiladigan qo'shimcha davlat pensiya tizimida ishtirok etish imkoniga ega. Dastur belgilangan to'lovlar asosida ish beruvchilar tomonidan qilinadigan ajratmalar hisobidan shakllanadi, bunda ishlovchilar ishtirok etmaydi.

---

<sup>63</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 2-5.

<sup>64</sup> <http://www.the-village.ru/village/business/figures/245795-pensii>.

<sup>65</sup> Орлов С.Н., Шеметов А.П. Пенсионное обеспечение в Российской Федерации. Монография. – Курган: "КТУ", 2013. – С. 27.

<sup>66</sup> Kasimova G.A. O'zbekistonda xorijiy davlatlar pensiya jamg'armalari faoliyatining tajribasidan foydalanish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 6-son, 2017. [www.interfinanse.uz](http://www.interfinanse.uz).

Pensiya turlaridan kelib chiqib, AQSh fuqarolari quyidagi tartibda pensiya olishlari mumkin. Jumladan, davlat pensiyasi yoki ijtimoiy pensiya olish uchun fuqaro 10 yil davomida oylik ish haqining 15 foizini pensiya fondiga o'tkazishi zarur. Korporativ pensiyaga ega bo'lishi uchun kompaniyada 5-6 yil mehnat qilishi zarur, ya'ni 5-6 yil mehnat stajiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, pensiya hisobraqamiga mustaqil ravishda ixtiyoriy miqdordagi mablag'ni o'tkazib borishi zarur.

AQShda xususiy pensiya tizimi rivojlangan bo'lib, kompaniya ishchilari xususiy pensiya dasturlarida ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, har bir AQSh fuqarosi tijorat va jamg'arma banklarda, pay fondlarida, sug'urta kompaniyalarida o'zining shaxsiy pensiya hisobraqamini ochishlari mumkin. Aholining umrguzaronligi oshib borishi bilan "Ijtimoiy ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartishlar kiritildi va pensiya yoshi 67 yosh qilib belgilandi. AQSh pensiya tizimining modeli bir qancha Lotin Amerikasi davlatlarida va Portugaliyada ham amal qiladi.

Ta'kidlash joizki, AQSh xususiy pensiya fondlari aktivlarining hajmi mamlakat YaIMning 134,9 foizini tashkil qiladi va dunyo bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi:

## 2.10-jadval

### Taraqqiy etgan mamlakatlarda xususiy pensiya aktivlari va davlat pensiya fondi zahiralari<sup>67</sup>

| Mamlakatlar | Xususiy pensiya rejalari<br>(mablag'lari, aktivlari), 2016 |                               | Davlat pensiya fondi zahiralari, 2015 |                               |
|-------------|------------------------------------------------------------|-------------------------------|---------------------------------------|-------------------------------|
|             | YaIMga nisbatan<br>foiz hisobida                           | mln. AQSh dollari<br>hisobida | YaIMga nisbatan<br>foiz hisobida      | mln. AQSh dollari<br>hisobida |
| Germaniya   | 6,8                                                        | 223906                        | 1,1                                   | 37055                         |
| Fransiya    | 9,8                                                        | 230184                        | 2,5                                   | 59552                         |
| Yaponiya    | 29,4                                                       | 1354754                       | 25,8                                  | 1137247                       |
| AQSh        | 134,9                                                      | 25126592                      | 15,4                                  | 2812510                       |

AQSh pensiya tizimidagi mablag'lar turli moliyaviy vositalarga investitsiya qilinadi va bu hol pensiya mablag'lari barqarorligini ta'minlab beradi. Pensiya mablag'lari miqdori, nafaqat, mablag'larning turli moliyaviy vositalarga investitsiya qilinishiga, balki o'rtcha ish haqi miqdori va shunga mos ravishda sug'urta badallari miqdoriga ham bevosita bog'liqdir. Albatta, yillik o'rtacha ish haqi miqdorining yuqoriligi davlat va xususiy pensiya fondlariga to'lanadigan sug'urta badallari

<sup>67</sup> Pensions at a Glance 2017: OECD and G20 Indicators © OECD 2017. – P. 155.

hajmining ham ko'payishiga olib keladi. Shunga mos ravishda pensiyalarning o'rtacha miqdori ham yuqoridir (2.11-jadval).

## 2.11-jadval

### 2016-yilda rivojlangan mamlakatlarda pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlari<sup>68</sup>

| Ko'rsatkichlar                                                                                  | Germaniya | Fransiya | Yaponiya | AQSh      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|----------|----------|-----------|
| O'rtacha ish haqi miqdori, yiliga AQSh dollari hisobida                                         | 50307     | 40038    | 43692    | 52543     |
| Pensiyaning o'rtacha miqdori, AQSh dollari hisobida                                             | 800-850   | 830-850  | 740-800  | 1000-1200 |
| Pensiyaga chiqish yoshi                                                                         | 67        | 62,5     | 70       | 65/67     |
| Pensiya ta'minotiga davlat xarajatlari, YaIMga nisbatan foiz hisobida                           | 10,1      | 13,8     | 10,6     | 7,0       |
| O'rtacha umr davomiyligi                                                                        | 81,3      | 82,3     | 84,0     | 79,6      |
| 65 yoshdagi aholi ulushi, jami aholiga nisbatan foiz hisobida                                   | 30,8      | 21,6     | 22,0     | 19,8      |
| 65 yoshdan oshgan aholi ulushi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbatan foiz hisobida | 34,8      | 33,3     | 46,2     | 24,6      |

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, Germaniya, Fransiya va Yaponiyada fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshi boshqa mamlakatlarga nisbatan ko'proq muddatni, ya'ni 62,5-70 yilgachani tashkil qiladi va erkak hamda ayollarning pensiyaga chiqish yoshi tenglashtirilgan. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ushbu mamlakatlarda fuqarolarning tug'ilgan yili, mehnat staji, oladigan pensiya miqdoriga bog'liq ravishda pensiyaga chiqish yoshi 1-5 yilgacha farqlanishi mumkin. Pensiya yoshining oshirilishi aholini keksalikda pensiya to'lovlarining ilgariga nisbatan qisqaroq muddat davomida, lekin ko'proq miqdorda ta'minlash imkonini berdi va bu orqali aholining keksalikdagi turmush darajasini oshirishga erishildi.

Pensiya ta'minotiga davlat xarajatlari hajmi bo'yicha Fransiya (13,8%) etakchilik qiladi. Bu esa Fransiyaning ijtimoiy himoya tizimi rivojlanganligidan dalolat beradi. O'rtacha umr davomiyligi bo'yicha Yaponiya (84 yil) dunyodagi barcha mamlakatlarni (Monako va Makao mamlakatlaridan tashqari) ortda qoldiradi va "qari" mamlakat hisoblanadi. Bu esa ushbu mamlaktda pensionerlar sonining ko'pligi bilan xarakterlanadi. Germaniyada jami aholi tarkibida 65 yoshdan oshgan aholi ulushi 30,8 foizni tashkil qiladi, ammo, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni tarkibida 65

<sup>68</sup> Pensions at a Glance 2017: OECD and G20 Indicators © OECD 2017. – P. 140-141.

yoshdan oshgan aholi ulushi 46,2 foizlik ko'rsatkichga ega bo'lgan Yaponiyadan ortda qoladi.

2016-yilda Fransiyada majburiy sug'urta badallari stavkasi davlat sektorida faoliyat yuritayotgan ishchilar uchun 7,25 foizni, ish beruvchilar uchun 10,40 foizni tashkil qilgan. Taqqoslash uchun, bu ko'rsatkich, Germaniyada davlat sektorida faoliyat yuritayotgan ishchilar uchun 9,35 foizni, ish beruvchilar uchun ham 9,35 foizni, Italiyada tegishli 9,19 va 23,81 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, Italiyada xususiy sektorda faoliyat yuritayotgan ishchilar uchun esa 3,10 foizni, ish beruvchilar uchun 4,65 foizni tashkil qilgan<sup>69</sup>. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, ushbu mamlakatlarda pensiya uchun ijtimoiy to'lovlar, boshqa mamlakatlarga qaraganda, foiz ko'rinishida kichik miqdorga ega bo'lishiga qaramasdan, barcha fuqarolar davlat va xususiy pensiya tizimida va pensiya rejalarida ishtirok etadi, ya'ni fuqarolarni pensiya sug'urtasi tizimi bilan qamrab olish darajasi yuqoridir.

### **2.3. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari pensiya ta'minoti tizimi tajribalari**

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimi rivojlanish pallasida bo'lib, EI va Lotin Amerikasi mamlakatlari pensiya tizimidan farq qiladi. Shu bilan birga, umumiy jihatlarga ham ega.

Qirg'iziston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimidagi pensiya islohotlarining dastlabki bosqichlaridan buyon belgilangan to'lovlar asosidagi qayta taqsimlash pensiya modeli o'rniga fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimi joriy qilindi. 1997-yil 21-iyulda Qirg'iziston Respublikasining "Davlat pensiya ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi<sup>70</sup>. 1997-yildagi pensiya islohotlarining dastlabki bosqichida Qirg'iziston Respublikasi pensiya qonunchiligida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi<sup>71</sup>:

- pensiya yoshini asta-sekinlik bilan oshirib borish (erkaklar uchun 60 yoshdan

<sup>69</sup> Pensions at a Glance 2017: OECD and G20 Indicators © OECD 2017. – P. 143.

<sup>70</sup> <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/557/70?cl=ru-ru>

<sup>71</sup> <http://socfond.kg/ru/citizens/9-Struktura-piensionnoi-sistemy-KR.html>

63 yoshgacha, ayollar uchun 55 yoshdan 58 yoshgacha);

– pensiya bo'yicha bir qancha imtiyolarni bekor qilish, jumladan, ayrim kasb egalari va aholi qatlami uchun erta pensiyaga chiqishni bekor qilish;

– uch komponentli pensiya tizimini joriy qilish: etarli stajga ega bo'lgan har bir pensionerga kafolatlangan bazaviy pensiya; mehnatga qo'shgan hissasi muvofiq pensiya ta'minoti; pensionerning pensiya hisobraqamiga yig'ilib boruvchi yakka tartibdagi pensiya badallari.

Pensiya islohotlarining navbatdagi bosqichlarida Qirg'iziston Respublikasida 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi joriy qilindi. Bu esa istiqbolda pensiya ta'minoti tizimiga demografik omillar ta'sirini yumshatish va pensiya tizimining jozibadorligini oshirishga imkon beradi.

Qirg'iziston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti joriy qilingandan so'ng pensiya tizimi 3 tarkibiy qismga bo'lindi: majburiy birdamlik (avlodar birdamligi) davlat pensiya tizimi; majburiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimi; ixtiyoriy yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya tizimi.

**2.12-jadval**

**Qirg'iziston Respublikasi pensiya tizimining tavsifi<sup>72</sup>**

| <b>Ko'rsatkichlar</b>                                          | <b>Bazaviy pensiya</b>                                                                                     | <b>Sug'urta pensiyasi</b>                                                                | <b>Jamg'arib boriladigan pensiya</b>                                                                                                                | <b>Ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya</b>                 |
|----------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------|
| Tashkil etish printsiplari                                     | Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash                                                                                | Avlodlar birdamligi prinsipi va ishchining shaxsiy javobgarligi                          | Ishchining shaxsiy javobgarligi                                                                                                                     | Ishchining shaxsiy javobgarligi                                |
| Pensiyaning tayinlash shart-sharoitlari va moliyaviy manbalari | Respublika byudjetidan transfertlar                                                                        | Ish beruvchi va ishchining majburiy badallari                                            | Ishchining majburiy badallari                                                                                                                       | Ishchining ixtiyoriy badallari                                 |
| Pensiya miqdorini hisoblash tartibi                            | Pensiya miqdori ish stajiga bog'liq. Bunda respublika bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdori ko'rib chiqiladi. | Jamg'arilgan pensiya mablag'lari miqdori va pensiyadan keyingi umr davomiyligiga bog'liq | Jamg'arilgan va kapitalizatsiya qilingan badallar miqdori, investitsiyalangan daromad va sug'urtalangan shaxsning badallar to'lagan davriga bog'liq | Pensiya badallarini to'lash bo'yicha tanlangan sxemaga bog'liq |

<sup>72</sup> <http://socfond.kg/ru/citizens/9-Struktura-pensionnoi-sistemy-KR.html>

2015-yilda Qirg'iziston Respublikasida pensiyaning o'rtacha miqdori 4817 somni (63,5 AQSh dollari), eng kam ish haqi miqdori 5020 somni (66 AQSh dollari) tashkil qilgan. Qirg'iziston Respublikasida o'rtacha 500 mingdan oshiq pensionerlar bor, ularning 2500 nafari yuqori pensiya oladi.

Qirg'iziston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-sentyabrdagi 339-sonli Farmoni asosida Qirg'iziston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish Kontsepsiyasi tasdiqlandi<sup>73</sup>. Shu asosda Qirg'iziston Respublikasi pensiya tizimiga jamg'ariladigan pensiya ham qo'shildi. Bu esa, Qirg'iziston Respublikasining pensiya ta'minoti tizimi aralash tizimga (avlodlar birdamligi – jamg'arib boriladigan) o'tganligidan dalolat beradi.

Gruziya Respublikasida 2005-yil 23-dekabrda “Davlat pensiyasi to'g'risida”gi Qonun<sup>74</sup> qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi keksa yoshdagi fuqarolarning Gruziya Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va davlat pensiyasini belgilash chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat. Mazkur Qonun pensiya olish huquqi yuzaga kelish asosini, pensiya boshqaruvi organini aniqlash, pensiyani tayinlash, to'lash, to'xtatish, yangilashning umumiy prinsiplarini belgilashni tartibga soladi. “Davlat pensiyasi to'g'risida”gi Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: inson huquqini himoya qilish; qonun oldida tenglik; umumiylik; doimiylik; avlodlar birdamligi; pensiya to'lanishining davlat tomonidan kafolatlanishi. “Davlat pensiyasi to'g'risida”gi Qonunga ko'ra pensiya olish huquqining yuzaga kelishi 65 yoshni, shu bilan birga ayollarda bu huquq 60 yoshni tashkil qiladi. Pensiyaning miqdori tegishli yildagi “Gruziya davlat byudjeti to'g'risida”gi Qonun asosida aniqlanadi va pensiyani moliyalashtirish manbasi bo'lib, davlat byudjeti hisoblanadi.

Gruziyada pensiya ishlari bilan Pensiya ma'muriyati organi shug'ullanadi. Ma'lumki, Gruziyada avlodlar birdamligiga asoslangan pensiya tizimi amal qiladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini 2018-yildan joriy etilgan<sup>75</sup>. Gruziya pensiya tizimini isloh qilish Kontsepsiyasi Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Gruziya

<sup>73</sup> <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/97201/40?cl=ru-ru&mode=tekst>

<sup>74</sup> <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/27946>

<sup>75</sup> <https://sputnik-georgia.ru/economy/20170905/237198921/Pensionnuju-reformu-zapustjat-v-Gruzii-v-2018-godu.html>

iqtisodiyot vazirligi bilan hamkorlikda turli mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

1992-yil 17-aprelda Belarus Respublikasining “Pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan harbiy xizmatchilar va ular oilalarining pensiya ta’minoti, Chernobil AES halokatidan zarar ko’rganlar va ular oilalarining pensiya ta’minoti, davlat xizmatchilarining pensiya ta’minoti, og’ir mehnat sharoitlarida ishlagan fuqarolarning pensiya ta’minoti, pensiyalarning turlari, pensiya olish huquqi, pensiya to’lovlarini amalga oshirish kabilar belgilab qo’yildi. Mazkur Qonunga ko’ra Belarusda mehnat pensiyasi va ijtimoiy pensiyalar amal qiladi. O’z navbatida, mehnat pensiyalari quyidagi pensiya turlaridan iborat: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi; xizmat qilgan yillari uchun pensiya; respublika oldida alohida xizmatlari uchun pensiya. Jami mehnat va ijtimoiy pensiyalarning 80 foizdan ortig’ini yoshga doir pensiya tashkil qiladi. 2-o’rinni nogironlik pensiyasi egallaydi va bu ko’rsatkich pasayish tendentsiyasiga ega. Bunga sabab ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarida turli tan jarohatlari olish darajasini kamaytirish va mehnat sharoitlarining yaxshilanganligi hamda pensiya qonunchiligida unga doir imtiyozlarning qisqartilishidir (2.13-jadval).

## 2.13-jadval

### Belorussiyada tayinlangan pensiyalar turi bo’yicha pensionerlar soni tarkibi, jamiga nisbatan foiz hisobida<sup>76</sup>

| Ko’rsatkichlar                                  | 1990-y. | 1995-y. | 2000-y. | 2005-y. | 2010-y. | 2014-y. |
|-------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Jami, shu jumladan:                             | 100     | 100     | 100     | 100     | 100     | 100     |
| yoshga doir                                     | 75,69   | 79,42   | 78,09   | 77,83   | 80,07   | 81,72   |
| nogironlik                                      | 12,15   | 12,56   | 12,87   | 12,60   | 11,10   | 10,43   |
| boquvchisini yo’qotganlik                       | 8,21    | 5,45    | 6,28    | 6,42    | 5,35    | 3,95    |
| xizmat qilgan yillari uchun                     | 0,13    | 0,24    | 0,44    | 0,74    | 1,13    | 1,37    |
| ijtimoiy nafaqa                                 | 1,62    | 2,09    | 2,00    | 2,13    | 2,15    | 2,30    |
| xarbiy xizmatchilar va ular oila a’zolari uchun | 2,19    | 0,24    | 0,32    | 0,29    | 0,20    | 0,23    |

Mehnat pensiyasini olish huquqiga ijtimoiy sug’urta badallari to’lagan barcha fuqarolar ega. Bunda sug’urta badallari to’langan davr kamida 15 yilni tashkil etishi kerak. Mehnat staji mavjud bo’lmagan fuqarolar qonunchilikda belgilangan tartibda ijtimoiy pensiya olish huquqiga ega. Ijtimoiy pensiyalar respublika byudjeti mablag’lari

<sup>76</sup> <http://idsm.ws/wp-content/uploads/2016/04/Pensions.pdf>.

hisobidan amalga oshiriladi.

Turli mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshi turlicha bo'lib, bu har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi. MDH tarkibida erta pensiyaga chiqish bo'yicha O'zbekiston va Rossiya birinchi o'rinni egallaydi.

#### 2.14-jadval

##### Turli mamlakatlarda qonun bilan belgilangan pensiyaga chiqish yoshi<sup>77</sup>

| Mamlakatlar  | Belgilangan pensiya yoshi, yil | Mamlakatlar    | Belgilangan pensiya yoshi, yil |
|--------------|--------------------------------|----------------|--------------------------------|
| Armaniston   | 63                             | Avstriya       | 65                             |
| Ozarbayjon   | 57/62                          | Belgiya        | 65                             |
| Belarus      | 55/60                          | Finlyandiya    | 65                             |
| Gruziya      | 60/65                          | Gresiya        | 65                             |
| Qozog'iston  | 58/63                          | Italiya        | 60/65                          |
| Qirg'iziston | 58/63                          | Yaponiya       | 65                             |
| Rossiya      | 55/60                          | Ispaniya       | 65                             |
| Turkmaniston | 57/62                          | Buyuk Britaiya | 68                             |
| O'zbekiston  | 55/60                          | Avstraliya     | 67                             |

Pensiya tizimi samaradorligini baholash uchun quyidagi 2.15-jadvalga murojaat qilamiz. Jadvalda pensiya ta'minotining muhim ko'rsatkichlari dinamikasi keltirilgan. Bunda mamlakatdagi pensiyaning o'rtacha miqdorining o'rtacha ish haqi miqdoriga nisbati asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich Belorusda 38 foizni tashkil qilgan va pensiya tizimining real moliyaviy imkoniyatlarini aks ettiradi. Belarus Respublikasi aholini ijtimoiy himoya qilish fondiga ajratmalar miqdori o'sish tendentsiyasiga ega.

#### 2.15-jadval

##### Belorus pensiya tizimi samaradorligi ko'rsatkichlari<sup>78</sup>

| Ko'rsatkichlar                                                                                 | 2010-y. | 2011-y. | 2012-y. | 2013-y. | 2014-y. |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Band bo'lganlar soni, ming ta                                                                  | 4703,0  | 4691,2  | 4612,1  | 4578,4  | 4550,5  |
| Belarus Respublikasi aholini ijtimoiy himoya qilish fondiga bir yildagi ajratmalar, ming rubl. | 4093,0  | 6139,5  | 12019,6 | 16694,7 | 20052,4 |
| Jami pensionerlar soni, ming ta                                                                | 2469    | 2487    | 2512    | 2537    | 2560    |
| Pensionerlarning bir yildagi daromadlari, ming rubl                                            | 6021,5  | 8897,5  | 17820,8 | 24148,3 | 29082,5 |
| O'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha ish haqiga nisbati, %da (qoplash koeffitsienti)          | 36,6    | 32,7    | 39,8    | 37,7    | 38,8    |
| Band bo'lganlar bo'yicha Belarus Respublikasi aholini ijtimoiy himoya                          | -       | -197,78 | -54,84  | -51,84  | -31,80  |

<sup>77</sup> Материалы центр экономических исследований BEROC (Белорусский экономический исследовательско-образовательный центр). Минск, Беларусь. 2015. – С. 22. Пенсионная система Беларуси: текущее состояние и необходимость реформ. [http://www.beroc.by/publications/policy\\_papers](http://www.beroc.by/publications/policy_papers).

<sup>78</sup> <http://liberalclub.biz>.

|                                                                     |      |      |      |      |      |
|---------------------------------------------------------------------|------|------|------|------|------|
| qilish fondi daromadlarining elastikligi                            |      |      |      |      |      |
| Bir pensionerga to'g'ri keluvchi iqtisodiyotda band bo'lganlar soni | 1,90 | 1,89 | 1,84 | 1,80 | 1,78 |

Jadval ma'lumotlaridan turli yo'nalishdagi ikki tendensiyaning kuzatish mumkin: pensionerlar sonining o'sishi va iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining kamayishi. Natijada bir pensioenrga 1,8 band kishi to'g'ri kelmoqda va hozirgi iqtisodiy sharoitda bu etarli emas.

Rossiya pensiya ta'minoti tarixi XVIII asrning oxirlaridan boshlangan. 1763-yilda Rossiyada birinchi marta davlat pensiyalari iste'fodagi xizmatchilarga berilgan. Davlat pensiyalarini oluvchilarning ko'pchiligi davlatning mansabdor shaxslari bo'lgan. 1827-yilda dastlabki umumiy pensiya qonunchiligi tasdiqlangan va 1896-yilga kelib, ushbu qonun hujjatlari yangilangan holda qabul qilingan va 1917-yilning oktyabriga qadar amalda bo'lgan. 1986-yildan boshlab 35 yil xizmat qilgan barcha fuqarolar iste'foga chiqqanlaridan so'ng bir yillik ish haqi miqdorida pensiya olishgan. Agar kimdir og'ir kasallik yoki salomatligi tufayli xizmatni tark etsa va mehnat staji 20 yilni tashkil qilgan bo'lsa, ular ham bir yillik ish haqi miqdorida pensiya olishgan<sup>79</sup>. Shu asnoda pensiya ta'minoti tizimi hozirgi kunga qadar takomillashib kelmoqda.

## 2.16-jadval

### Ijtimoiy siyosat xarajatlariga yo'naltirilgan konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foiz hisobida<sup>80</sup>

| Mamlakatlar  | 2013-y. | 2014-y. | 2015-y. | 2016-y. |
|--------------|---------|---------|---------|---------|
| Ozarbayjon*  | 3,0     | 3,3     | 3,4     | 4,4     |
| Armaniston*  | 6,5     | 7,1     | 7,6     | 7,8     |
| Belorussiya  | 2,2     | 2,1     | 2,4     | 2,6     |
| Qozog'iston  | 3,8     | 3,9     | 4,2     | 4,2     |
| Qirg'iziston | 5,7     | 5,8     | 5,8     | 5,5     |
| Moldaviya    | 12,6    | 12,6    | 12,8    | 12,8    |
| Rossiya      | 12,3    | 10,6    | 12,1    | 12,2    |
| O'zbekiston* | 1,4     | 1,3     | 1,3     | 1,1     |
| Ukraina      | 9,5     | 8,7     | 8,9     | 10,8    |

\* – faqat davlat byudjetidan ijtimoiy maqsadlarga qilingan xarajalar aks ettirilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Rossiyada ijtimoiy siyosat xarajatlari<sup>81</sup>ga


<sup>79</sup> [http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2015/TGU\\_6\\_174.pdf](http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2015/TGU_6_174.pdf)

<sup>80</sup> Мониторинг показателей качества жизни населения в странах Содружества Независимых Государств 2013-2016. Межгосударственный Статистический комитет Содружества Независимых Государств. – Москва: 2017. – С. 26.

<sup>81</sup> Aholini pensiya bilan ta'minlash, ijtimoiy xizmatlar va aholining ijtimoiy ta'minoti, ijtimoiy siyosat sohasida ilmiy tadqiqot

yo'naltirilgan konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlarning YaIMdagi ulushi 2016-yilda 12,2 foizni tashkil qilgan va bu ko'rsatkich bo'yicha MDHga a'zo davlatlar ichida 2-o'rinni egallagan (2.16-jadval). O'zbekiston bo'yicha bu ko'rsatkich YaIMning 1,1 foizini tashkil qilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, konsolidatsiyalashgan byudjet o'z ichiga bir qancha byudjetlarni qamrab oladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari kiradi. Agar mazkur byudjetlarning ham ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlari miqdori hisobga olinadigan bo'lsa, O'zbekiston bo'yicha bu ko'rsatkich bir necha barobar yuqori bo'ladi.

Rossiya pensiya ta'minoti tizimi takribiy jihatdan 3 turga bo'linadi:



#### 2.4-rasm. Rossiya pensiya ta'minoti tizimining tarkibiy tuzilishi

1. Majburiy pensiya sug'urtasi<sup>82</sup>.

2. Nodavlat pensiya ta'minoti. Bu tizim nodavlat pensiyani shakllantirishning ixtiyoriy individual shaklini ko'zda tutadi va faqat nodavlat pensiya fondi tomonidan to'lanadi. Nodavlat pensiya fondi mablag'lari individual pensiya hisobraqamlari bo'yicha jismoniy shaxslarning ixtiyoriy pensiya badallari yoki korporativ pensiya dasturlari bo'yicha ish beruvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda ishchining foydasiga to'lagan pensiya badallari hisobidan shakllantiriladi. Ammo, Germaniyada nodavlat

va tajriba-konstruktorlik ishlari bilan bog'liq xarajatlar.

<sup>82</sup> Bu pensiya turi tarkibiy jihatdan: 1) Yoshga doir mehnat pensiyasi (pensiya miqdori ish beruvchilar tomonidan to'langan badall miqdoriga bog'liq bo'ladi); 2) Nogironlik bo'yicha mehnat pensiyasi (kamida 5 yil mehnat stajiga ega bo'lgan fuqarolarga tayinlanadi); 3) Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi (vafot etgan shaxsning mehnat staji mavjud bo'lishi zarur).

pensiya ta'minoti tizimida korporativ pensiya dasturlarining ulishi 50 foizni tashkil qiladi<sup>83</sup>.

### 3. Davlat pensiya ta'minoti<sup>84</sup>.

Bugungi kunda Rossiya pensiya fondining daromadlari, asosan, majburiy pensiya sug'urtasi bo'yicha sug'urta badallari hamda Rossiya Federasiya federal byudjet mablag'laridan iborat. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Pensiya fondining daromadlari 2016-yilda 7626 mlrd. rublni tashkil qilib, 2015-yilga nisbatan 7 foizga o'sgan va bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 1,6 martaga ortgan. Pensiya fondi daromadining asosiy manbasini tashkil etuvchi majburiy pensiya sug'urtasi bo'yicha badallar miqdori 2016-yilda Pensiya fondi jami daromadining 54,2 foizini tashkil qildi (2.17-jadval).

**2.17-jadval**

**Rossiya Pensiya fondi byudjetining asosiy ko'rsatkichlari<sup>85</sup>**

| №    | Ko'rsatkichlar                                                    | 2010-y. | 2011-y. | 2012-y. | 2013-y. | 2014-y. | 2015-y. | 2016-y. |
|------|-------------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| 1.   | Jami pensionerlar soni, mln. kishi                                | 39,7    | 40,2    | 40,6    | 41,1    | 41,46   | 42,7    | 42,9    |
| 2.   | Pensiya fondi daromadlari, mlrd. rub.                             | 4600    | 5256    | 5890    | 6388    | 6159    | 7127    | 7626    |
| 2.1  | Majburiy pensiya sug'urtasi bo'yicha badallar tushumi, mlrd. rub. | 1900    | 2815    | 3026    | 3459    | 3694    | 3864    | 4132    |
| 2.2. | Federal byudjetdan tushumlar, mlrd. rub.                          | 2640    | 2400    | 2800    | 2840    | 2410    | 3100    | 3355    |
| 3.   | Pensiya fondi xarajatlari, mlrd. rub.                             | 4200    | 4922    | 5451    | 6379    | 6190    | 7670    | 7830    |
| 3.1. | Pensiya ta'minotiga xarajatlar, mlrd. rub.                        | 3700    | 4081    | 4524    | 5250    | 5406    | 6201    | 6430    |
| 3.2. | Ona (oila) kapitaliga xarajatlar, mlrd. rub.                      | 97,1    | 171,3   | 212,4   | -       | 270,7   | -       | 365     |

<sup>83</sup> <http://nauchkor.ru/uploads/documents>.

<sup>84</sup> Davlat pensiya ta'minoti Rossiya pensiya tizimining takribiy qismi hisoblanib, federal byudjetdan moliyalashtiriladi. Davlat pensiyasini olish huquqiga: davlat federal xizmatchilari, harbiy xizmatchilar, Ulug' Vatan urushi qatnashchilari, radiatsiya natijasida zarar ko'rgan fuqarolar, mehnatga layoqatsiz fuqarolar, ya'ni davlat pensiyaning besh turini farqlash zarur: 1) Xizmat qilgan yillari uchun pensiya (federal davlat xizmatchilari, harbiy xizmatchilar, kosmonavtlar, uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarga tayinlanadi); 2) Yoshga doir pensiya (radiatsiya oqibatlar natijasida zarar ko'rgan fuqarolarga tayinlanadi); 3) Nogironlik pensiyalari (harbiy xizmatchilar, kosmonavtlar, Ulug' Vatan urushi qatnashchilari, "Qamaldagi Leningrad fuqarosiga" nishoni bilan taqdirlangan shaxslar; radiatsiya oqibatlar natijasida zarar ko'rgan fuqarolarga tayinlanadi); 4) Boquvchisni yo'qotganlik pensiyasi (vafot etgan kosmonavtlar, harbiy xizmatchilar, radiatsiya oqibatlar natijasida zarar ko'rgan fuqarolarning mehnatga layoqatsiz oila a'zolariga tayinlanadi); 5) Ijtimoiy pensiya – yoshga doir (u yoki bu sabablar bilan mehnat pensiyasiga ega bo'lmagan fuqarolarga tayinlanadi) – nogironlik pensiyasi (I, II, III guruh nogironlariga va nogiron bolalarga tayinlanadi) – boquvchisini yo'qotganlik pensiya (ota-onadan birini yoki ikkalasini ham yo'qotgan, 18 yoshga to'lmaganlarga tayinlanadi).

<sup>85</sup> Rossiya Pensiya fondining yillik hisoboti ma'lumotlari asosida tayyorlandi. [www.pfrf.ru](http://www.pfrf.ru). <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

Pensiya fondi xarajatlari 2016-yilda 7830 mlrd. rublni tashkil qilib, 2015-yilga nisbatan 2,1 foizga o'sgan va 2010-yilga nisbatan 1,8 martaga ortgan. Xarajatlar tarkibida asosiy ulushni fuqarolarning pensiya ta'minoti (sug'urta pensiyalari to'lovi, davlat pensiya ta'minoti bo'yicha pensiya to'lovlari, ijtimoiy nafaqalar) egallaydi va 2016-yilda bu ko'rsatkich Pensiya fondi jami xarajatlarining 82,1 foizini tashkil qilgan. E'tiborli jihati shundaki, 2015-2016-yillarda Pensiya fondi byudjetining defitsit holati kuzatilgan, ya'ni Fond xarajatlari Fond daromadlaridan 204 mlrd. rublga ortiq bo'lgan. Bunga asosiy sabab ko'plab fuqarolarning o'z pensiya jamg'armalarini nodavlat pensiya fondlariga o'tkazganliklaridadir. Shuni qayd etish joizki, pensiya jamg'armalarining nodavlat pensiya fondlariga o'tkazilishi Pensiya fondi tomonidan emas, balki Boshqaruv kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. Chunki, barcha pensiya jamg'armalari (6%) mablag'lari Fond tomonidan Boshqaruvchi kompaniyalarga o'tkazib beriladi.

Qozog'iston Respublikasi MDHga a'zo mamlakatlar ichida birinchi bo'lib aholining pensiya ta'minoti islohotlarini amalga oshirdi. Bu islohotlarning asosiy mohiyati "avlodlar birdamligiga" asoslangan "taqsimlovchi" pensiya ta'minoti tizimidan pensiya fondlarida jamlanadigan individual pensiya jamg'armalarini ko'zda tutuvchi jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga o'tildi.

Quyidagi jadvalda Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotida pensiyalarning tutgan o'rni aks ettirilgan.

**2.18-jadval**

**Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotida  
pensiyalarning tutgan o'rni (foiz hisobida)**

| <b>Ko'rsatkichlar</b>                        | <b>01.01.<br/>2007-yil</b> | <b>01.01.<br/>2008-yil</b> | <b>01.01.<br/>2009-yil</b> | <b>01.01.<br/>2010-yil</b> | <b>01.01.<br/>2011- yil</b> | <b>01.01.<br/>2012-yil</b> | <b>01.01.<br/>2013-yil</b> |
|----------------------------------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------------|----------------------------|-----------------------------|----------------------------|----------------------------|
| YaIM, mlrd. tenge                            | 10139,5                    | 12849,8                    | 16052,9                    | 17007,6                    | 19303,6                     | 26310,2                    | 31442,7                    |
| Pensiya jamg'armalarining YaIMga nisbati     | 9,0                        | 9,4                        | 8,8                        | 10,9                       | 11,7                        | 10,1                       | 10,1                       |
| Pensiya badallarining YaIMga nisbati         | 6,7                        | 7,1                        | 7,4                        | 8,8                        | 9,4                         | 7,6                        | 7,8                        |
| Sof investitsiya daromadining YaIMga nisbati | 2,5                        | 2,6                        | 1,9                        | 2,8                        | 3,0                         | 2,1                        | 2,2                        |
| Fondlar jami kapitalining YaIMga nisbati     | 0,2                        | 0,2                        | 0,3                        | 0,4                        | 0,4                         | 0,4                        | 0,4                        |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, iqtisodiyotda pensiya tizimining roli yildan-yilga salmog'li ahamiyat kasb etib bormoqda va nisbiy ko'rsatkichlar o'sish sur'atiga ega. Qozog'iston pensiya islohotlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi qo'shimcha ta'minoti sifatida emas, balki nodavlat pensiya ta'minotining yangi asosiy elementi sifatida joriy qilindi. Shuning uchun Qozog'istonda pensiya islohotlari harakatining asosiy yo'nalishlarini uch asosiy omil belgilab berdi. Birinchisi – pensiyaga chiqqan fuqarolarni pensiya bilan ta'minlash muammosining hal etilishi bo'ldi. Islohotlar natijasida pensiyani moliyalashtirish usullari o'zgardi, bunda fuqarolar pensiyani moliyalashtirishning davlat ta'minotiga ko'zi etmasligini tushunganlaridan so'ng, shaxsiy jamg'armalarini ko'paytirishni boshladilar. Ikkinchisi – xususiy pensiya fondlarini tashkil etish yo'li bilan inflyatsiya sharoitida fuqarolar jamg'armalarini saqlash va ko'paytirishdan iborat. Bunday fondlar tashkil etilsa, mamlakatdagi ichki jamg'armalar jamlanadi hamda iqtisodiyotning aniq sohalariga yo'naltiriladi va bu uchinchi omilni keltirib chiqaradi, ya'ni pensiya fondlarida jamlangan mablag'lar samarali investitsiyalanishi uchun bank tizimi va kapital bozorini shakllantirish zarurligini keltirib chiqaradi.

## **2-bob bo'yicha xulosa:**

– Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov 2014, 2016 va 2017-yillarda o'rtacha 56,2 foizni tashkil qilgan. Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha tushumlar ulushi salmoqli o'ringa ega bo'lmoqda;

– 2014, 2016 va 2017-yillar davomida Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida pasayish tendensiyasiga ega. Aksincha, Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish tendensiyasiga ega;

– Germaniya davlat pensiya ta'minoti tizimi majburiy davlat pensiya sug'urtasi, ishlab chiqarish pensiya sug'urtasi hamda xususiy sug'urtaga asoslangandir. Germaniyada fuqarolarni keksalikda ijtimoiy himoya qilish majburiy pensiya sug'urtasi zimmasiga yuklatilgan. Germaniyada 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan jami aholining

78 foizi sug'urtalangan shaxslar hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, Germaniyada davlat ijtimoiy sug'urtaning rivojlangan tizimi amal qiladi. Ushbu tizim fuqarolarni turli xil kasalliklardan, ishsizlikdan, shuningdek, keksalik davrida himoya qilinishini kafolatlaydi;

- Fransiya pensiya tizimi jamg'arib boriladigan pensiyalarni sug'urtalash hamda avlodlar birdamligi pensiya ta'minotidan iborat. Shuningdek, Fransiya pensiya tizimi tarkibida xilma-xil aloxida pensiya dasturlarining ko'pligidir. Bunday holat fuqarolar ijtimoiy ta'minotini yanada ya'shilash imkonini beradi;

- AQSh pensiya tizimi davlat va xususiy pensiya ta'minoti asosida amal qiladi. AQSh fuqarolari uch turdagi pensiyalar olish imkoniga ega. Jumladan, davlat pensiyalari, korporativ pensiyalar va shaxsiy pensiya hisob-raqamini ochish yo'li bilan xususiy yakka tartibdagi pensiyalar. AQSh pensiya fondi aktivlari jihatdan dunyoda birinchi o'rinda turadi va bu hol pensiya tizimini moliyalashtirishdagi muammolar minimum holatga keltirilgan deb baholanadi;

- Rossiya pensiya ta'minoti tizimi majburiy pensiya sug'urtasi, nodavlat pensiya ta'minoti hamda davlat pensiya ta'minotidan iborat bo'lib, uning ijobiy jihatlaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish mumkin;

- Qozog'istonda pensiya tizimi islohotlari ijtimoiy sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda va respublika iqtisodiyotida muhim o'ringa ega. Iqtisodiy rivojlanish modelidan qat'iy nazar, davlatning ijtimoiy taraqqiyoti pensionerlarning hayot darajasi, turmush farovonligi bilan baholanadi. Turli mamlakatlarda ijtimoiy ta'minot muammosi davlat darajasida hal etiladi. Shunga muvofiq ko'p yillar davomida Qozog'istonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bir qancha ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Bugungi kunda respublikada amal qilayotgan pensiya tizimi pensionerlarning hayot darajasi va turmush farovonligini oshirish imkonini beradi.

### **III BOB. MILLIY PENSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH**

#### **3.1. Jahon pensiya ta'minoti tizimidagi o'ziga xos muammolar**

Ta'kidlash joizki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tug'ilishlar sonining sezilarli kamayishi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining uzayishi natijasida pensiya ta'minoti tizimida muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, EI da 65 yoshdan oshganlar aholining 16 foizini tashkil etsa (2013-yil yanvar holatiga 18,2 foiz<sup>86</sup>, BMTning tadqiqotlariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 2030-yilgacha 25 foizga, 2050-yilga borib esa 28 foizga etadi. Hozirgi kunda EI da 65 yoshdan har bir kishiga 4 ta mehnat qiluvchilar to'g'ri kelsa, 2050-yilga borib mazkur raqam Buyuk Britaniyada 2,4 ni, Fransiyada 2,3 ni tashkil etsa, Germaniya va Italiyada bir muncha murakkab vaziyat yuzaga kelib, mos ravishda 2 va 1,5 ni tashkil etadi<sup>87</sup>. Pensiya ta'minoti tizimida pensiya yoshini oshirish orqali ba'zi muammolarni hal etish tendensiyalari EI mamlakatlarida kuzatilmoqda. Xususan, Fransiya quyi palatasi tomonidan tasdiqlangan pensiya islohotlarida pensiya yoshi 2018-yilga borib 60 dan 62 ga oshirilishi belgilandi. Bu bilan esa, to'liq pensiya olish huquqi 65 dan 67 ga etkaziladi<sup>88</sup>.

1960-2000-yillar mobaynida EI da o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 4 yilga uzaygan bo'lsa, 2060-yilgacha bo'lgan davrda ushbu ko'rsatkich erkaklarda 8,5 yilni, ayollarda 6,9 yilni tashkil etadi. Shuningdek, tug'ilishlar soni har bir ayolga to'g'ri keluvchi 2,1 ta tug'ilish mezonidan ham kam bo'lmoqda. Masalan, ushbu ko'rsatkichning eng yuqori darajasi Fransiyada 2,0 ni tashkil etmoqda. EI bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa, 1,4 bo'lmoqda. Mazkur ko'rsatkich O'zbekistonda 2,5 taga to'g'ri kelmoqda<sup>89</sup>.

---

<sup>86</sup> Dynamic Social Security for Europe: A social model for recovery and growth // Social Policy Highlight. Geneva: International social security association, 2010. - № 11. - P. 2.

<sup>87</sup> Eurostat regional yearbook 2014. P. 30.

<sup>88</sup> <http://dx.doi.org/10.1787/888932907927> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>89</sup> Муравлева Т.В. Новые подходы к определению пенсионного возраста//Финансы и кредит. – Москва, 2011. - №43(475). – С. 2-6.

EI mamlakatlarida yuzaga kelayotgan bu kabi murakkabliklar ijtimoiy sohada moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga ta'sir etmoqda. Bu esa, o'z o'rnida, pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari hajmini oshishiga olib kelmoqda. Xususan, pensiya yoshidagi aholining jamiga nisbatan ulushi oshayotganligi tizimda nobarqarorlik omilini aks ettirsa, ikkinchi tomondan yoshi katta aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji 2 barobardan ziyod oshadi. Bu esa, ijtimoiy sohaning rivojlanishida kompleks moliyaviy islohotlarni talab etadi.

Uzoq yillar mobaynida EI mamlakatlari davlat pensiya ta'minoti tizimlarida pensionerlarning pensiyalarini moliyalashtirish iqtisodiy band bo'lgan aholi guruhlaridan yig'ib olinadigan soliq ko'rinishidagi tushumlar hisobidan amalga oshirilib kelingan bo'lib (avlodlar birdamligi tamoyili asosida), ushbu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib borish tendensiyasiga ega. Ushbu holat pensionerlarning pensiya miqdorining ortishidan dalolat bermaydi. EI mamlakatlari aholining global qarishi muammosiga duch kelganligi sababli ularda pensionerlarning soni ortib borishi bilan bir qatorda, pensiya fondlari xarajatlari mutanosib ravishda o'sib bormoqda. 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi davrda ushbu mamlakatlar guruhida iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish hajmi va aholining bandligi darajasida sezilarli tarzda salbiy o'zgarishlarning vujudga kelganligi bevosita pensiya fondlariga nisbatan "pensiya yuki"ning ortishiga olib keldi. Natijada EI mamlakatlari davlat pensiya ta'minoti tizimida pensiyalarni moliyalashtirishning yangi shakllarini ishlab chiqish va aholini munosib darajada pensiya bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvorlik berildi.

EI mamlakatlarida amal qilayotgan qonunchilikka asosan ularda davlat pensiya ta'minoti tizimi bevosita davlat boshqaruviga asoslangan bo'lib, pensiya fondlarining xarajatlarini moliyalashtirish avlodlar birdamligiga asoslangan. Ushbu mamlakatlar guruhida aholining qarishi muammosi toboro avj olib borayotganligi sababli, aksariyat davlatlarda pensiya fondlarini moliyalashtirishda kamchiliklar va ushbu fondlarning moliyaviy taqchillik holatiga duch kelishi kuzatilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, EI mamlakatlari 2050-yilga qadar pensiya ta'minoti tizimida davlatning ishtirokini qisqartirish va pensiya fondlari faoliyatini xususiy sektorda tashkil etish,

ularni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Xususiylar pensiya dasturlarini amalga oshirishda EI mamlakatlarida korporativ pensiya dasturlari va xususiylar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi faoliyatini rag'batlantirish maqsad qilib olingan. Bunda xususiylar pensiya fondlarini moliyaviylar jihatdan qo'llab-quvvatlash mas'uliyati davlatga emas, balki xususiylar sektorda faoliyat olib borayotgan ish beruvchilarga yuklatiladi. Ish beruvchi va yollanma ishchi tomonidan ushbu pensiya fondlariga yo'naltirilgan mablag'larga nisbatan soliq imtiyozlari joriylar etilib, aholini xususiylar pensiya fondlariga bo'lgan ishonchini yanada orttirish ko'zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda EI mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimini isloh etish orqali fuqarolarning pensiya miqdorini iloji boricha mamlakatdagi o'rtacha oylik ish haqi bilan tenglashtirish va keksa aholi qatlamlarining turmush darajasini oshirish mumkin bo'ladi. Mazkur o'zgarishlar fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti olishlari uchun talablarni oshirish evaziga tashkil etiladi. Bu esa aholida keksalik davri sug'urtasini xususiylar pensiya fondlarida amalga oshirishga bo'lgan intilishini kuchaytiradi. Natijada davlat pensiya fondlarining xarajatlari qisqarib, fuqarolar o'zlari shakllantirgan sug'urta jamg'armalari va to'lagan sug'urta badallariga mos tarzda pensiyalarini ola boshlaydilar. Bu esa keyinchalik EI mamlakatlarida avlodlar birdamligi tamoyili asosida faoliyat yuritayotgan pensiya fondlari faoliyati qisqarishiga olib keladi

2050-yilga qadar amalga oshiriladigan ushbu islohotlar natijasida EI mamlakatlarida davlat pensiya ta'minoti fuqarolarni keksalik davrida ijtimoiylar jihatdan muhtojligini oldini olish va ularni minimal turmush darajasini ta'minlash maqsadida faqatgina minimal pensiyalar bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. EI mamlakatlarida davlat pensiya ta'minotining minimal pensiyalari qay darajada aholini turmush farovonligini ta'minlayotganligini baholash uchun milliy valyutalar evroga tenglashtirilib, ularning xarid qobiliyati baholanib, EI mamlakatlari uchun yagona yashash minimumiga muvofiqligi Evropa Komissiyasi tomonidan tekshirib boriladi.

EI mamlakatlarida 65 va undan katta yoshdagi aholi sonining ortib borayotganligini inobatga olgan holda pensiyaga chiqish yoshi va mehnat bozoriga keksa aholini ham jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish boshlandi.

2009-yilda nashr etilgan “Qarish to’g’risidagi hisobot”da 2060-yilga qadar bo’lgan muddatda EI mamlakatlarida aholining qarib borishi bilan bir qatorda ijtimoiy ta’minot xarajatlari tarkibida pensiya xarajatlari ulushi ortib borishi, shuningdek, makroiqtisodiy ko’rsatkichlarning (YaIM, bandlik, jami aholi soni va h.k.) o’zgarishi haqida ma’lumotlar keltirilgan (3.1-jadval).

### 3.1-jadval

#### Evropa Ittifoqi mamlakatlarida makroiqtisodiy ko’rsatkichlarning o’zgarib borishi prognozlari (foiz hisobida)<sup>90</sup>

| Ko’rsatkichlar                                     | 2008-2020 y. | 2020-2040 y. | 2040-2060 y. | 2008-2060 y. |
|----------------------------------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| YaIM darajasining o’sishi                          | 2,4          | 1,7          | 1,3          | 1,7          |
| Umumiy aholi soni                                  | 3,7          | 0,0          | -1,6         | 2,1          |
| Bandlik darajasi                                   | 1,7          | 1,7          | 1,7          | 1,8          |
| 15-64 yoshdagi aholi soni (mehnat yoshidagi aholi) | -0,4         | -4,4         | -10,2        | -15,0        |
| Keksa aholining bog’liqlik koeffitsienti           | 25,4         | 31,1         | 53,5         | 28,1         |

Mazkur hisobotda EI mamlakatlarida pensiya yoshini optimal darajada oshirib borish bilan birga, mehnat bozorida keksa yoshdagi aholi qatlamlari uchun faol bandlik siyosatini qo’llash orqali ularning bandligini ta’minlash zarurligi alohida ta’kidlab o’tilgan.

3.1-jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, EI mamlakatlarida 2008-2020-yillarda YaIMning o’rtacha o’sish ko’rsatkichi 2,4 foizni tashkil etsa, keyingi davrlarda mazkur ko’rsatkich pasayib borish tendensiyasiga ega bo’ladi. Aholi soni esa 2020-2040-yillardan boshlab kamayib boradi. 15-64 yoshdagi aholi sonining umumiy aholi sonidagi ulushi ham kamayib, EI mamlakatlarida keksalarning bog’liqlik koeffitsienti tobora ortib boradi va 2040-2060-yillarda mazkur ko’rsatkich 53,5 foizga etadi.

EI mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimiga zamonaviy demografik tendensiyalar (aholining tabiiy ko’payishi darajasiga nisbatan tug’ilishning kamayishi va aholini qarishi), iqtisodiy globalizatsiya va Evropa integratsiyasining kuchayishi faol ta’sir ko’rsatadi. Bunday holat EI mamlakatlarida ijtimoiy adolat prinsiplari va iqtisodiy rivojlanishning ustuvorligi o’rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishining oldini olishga imkon

<sup>90</sup> Vaxabov A.V. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta’minoti tizimini isloh etish istiqbollari. “Pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish” mavzusidagi O’zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag’ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to’plami. – T.: O’MU. 2017-yil 15-noyabr. 67-b.

beruvchi umumjamiyat taraqqiyotining unsurlari hisoblangan iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning optimal muvozanatiga erishishning yangi yo'llarini izlash zarurligini ko'rsatadi.

Germaniyada 1990-yillarning boshidagi asosiy muammolardan biri pensiya ta'minoti fondi mablag'larining taqchilligi (defitsiti) hisoblanadi va bu taqchillik hozirgi qadar ham federal byudjet mablag'lari hisobidan qoplanib kelmoqda. Ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari taqchilligini qoplash bo'yicha davlatning qo'shimcha kafolatlari "byudjeti yuki"ning bir muncha og'irlashib ketishiga olib keladi. Ijtimoiy sug'urta tizimida salbiy tendensiyalarning rivojlanishi pensiya ta'minotini moliyalashtirish tizimi o'xshash bo'lgan bir qancha EI mamlakatlarida ham kuzatildi. Bunday holat yuzaga kelishining asosiy sababi, G'arbiy Germaniya mutaxassislarining fikricha, mamlakatdagi demografik nomutanosiblik hisoblanadi. Xususan, pensiya yoshidagi kishilar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda, natijada mehnat qilayotgan va sug'urta badali to'layotgan kishilar soni bilan pensionerlar sonining nisbati nomuvofiqligi yuzaga keldi. Sotsiologlarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2020-yildan boshlab ushbu vaziyat o'ta xavfli ahamiyat kasb etadi, chunki mehnat qilayotgan va sug'urta badali to'layotganlar soni pensionerlar soni bilan tenglashadi. Hozirgi kunda Germaniyada bir pensionerga ikki ishlovchi yoki sug'urta badali to'lovchi to'g'ri keladi. Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalariga muvofiq, bir pensionerga kamida 3 ta sug'urta badali to'lovchi, ya'ni ishlovchi to'g'ri kelishi kerak.

Asta-sekin ishchilar daromadlarining o'sishiga nomutanosib ravishda pensiya ta'minoti fondiga ajratmalar stavkasi ortib bordi. Albatta, bunday holat jamiyatda o'ziga xos "taranglik"ni keltirib chiqaradi. Jamiyatdagi bunday taranglikni bartaraf etish yoki kamaytirish maqsadida 1992-yilda Germaniyada "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi yangi federal qonun kuchga kirdi. Mazkur qonunda Germaniya pensiya sug'urtasi tizimini yanada rivojlantirishning asosiy prinsiplari belgilab berildi:

– birinchidan, pensiyalarning miqdori pensiya sug'urtasi fondiga to'langan badallar miqdoriga hamda kishining mehnat faoliyati davomida uning pensiya sug'urtasida ishtirokining davmoiyligiga bog'liq bo'lishi lozim. Bunday prinsip ekvivaletlik prinsipi deb nom olgan;

– ikkinchidan, pensiya miqdorining oshirilishi mamlakatdagi o'rtacha ish haqining oshirilishiga mutanosib ravishda amalga oshirilishi kerak;

– uchinchidan, pensiya miqdori pensionerlarning munosib turmush farovonligini ta'minlab berishi uchun etarli miqdorda bo'lishi zarur. Shunday qilib, ushbu qonunda turmush darajasining xavfsizlik modeli asoslab berilgan.

Fransiya pensiya tizimida demografik millar, ishsizlik va boshqalar tufayli moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qadar ham moliyaviy barqarorlik masalasi yaxshi holatda bo'lmagan. Shu sababli Fransiyada pensiya tizimini isloh etish 90-yillardan boshlangan. Fransiyada amalga oshirilgan pensiya islohotlarini inqirozdan oldingi va keyingi islohotlarga ajratish mumkin. Inqirozdan oldingi islohotlar 1993-yildagi Balladur va 2003-yildagi Raffarin islohotlaridir. Ushbu islohotlar doirasida asosan pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida to'liq pensiya olish vakolatini beruvchi pensiya badallari to'lovi muddati oshirib borildi. Inqirozdan keyingi islohotlarda ham bunday chora-tadbirlar davom ettirildi.

Moliyaviy inqirozning pensiya tizimiga ta'siri faqat pensiya fondlari investitsiya faoliyati natijalariga nisbatan namoyon bo'ldi. 2008-yilda pensiya fondlari aktivlarida katta miqdorda yo'qotishlar kuzatilgan bo'lsada, 2009-yildan aktivlarda o'sish tendensiyalari namoyon bo'ldi<sup>91</sup>. Iqtisodiy inqiroz ta'sirida mamlakatda kuzatilgan iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi va ishsizlik darajasining ortishi tufayli Fransiya pensiya tizimi pensiya badallari to'lovchilar sonining kamayishi hisobiga jiddiy zarar ko'rdi. Inqirozdan keyingi amalga oshirilgan iqtisodiy va pensiya islohotlari natijasida mamlakatda mehnat resurslarining bandlik darajasining barqarorlashtirishga erishildi.

Fransiya pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan barcha islohotlar ijobiy natijalar keltirishi bilan birgalikda ular ayrim qiyinchiliklarni ham keltirib chiqardi. 60 yoshdan oshgan pensiya yoshiga etmagan shaxslarning ma'lum bir qismida ishsizlik, nogironlik, bemorlik holatlari kuzatilmoqda va ularni minimal ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlash borasidagi qo'shimcha xarajatlar yuzaga kelmoqda.

---

<sup>91</sup> Fayzullaev J.N. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Fransiya pensiya tizimiga ta'siri va uni bartaraf etishga qaratilgan islohotlar. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusidagi O'zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. – Toshkent, 2017-yil 15-noyabr. 87-b.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida Fransiya pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi yaxshilangan bo'lsada, pensiya tizimi mehnat unumdorligi, ishsizlik darajalari va demografiyadagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan pensiya islohotlarida ushbu omillarni hisobga olgan holda chora-tadbirlar ishlab chiqish islohotlar samaradorligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, EI mamlakatlarida 2060-yilga qadar pensiya ta'minoti tizimini isloh etish yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi: keksa aholining bog'liqlik koeffitsientini kamaytirish maqsadida 65 va undan yuqori yoshdagi aholi qatlamlariga nisbatan ishchi kuchi sifatida munosabatni shakllantirish va ularning bandligini ta'minlash; yoshga doir pensiyalarning daromadlarini qoplash koeffitsientini oshirish; pensiya yoshidagi aholi guruhlarini yollanib ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratish va ularni qo'llab-quvvatlash; mamlakatdagi o'rtacha pensiya miqdorini fuqarolarning mehnat faoliyatidagi samarali faoliyati ko'rsatkichi bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash; mehnat bozorida ish vaqtlarini o'zgartirish va samarali bandlikni tashkil etish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida pensiya yoshi, nafaqat, Evropa, Amerika, Osiyo mamlakatlari orasida, balki MDH davlatlari ichida ham eng kichik hisoblanib, muddatidan avval pensiyaga chiqish huquqini hisobga olgan holda, o'rtacha erkaklarda 58 va ayollarda 53 yoshni tashkil etadi. Ma'lumotlarga qaraganda, pensiya yoshi jahonda o'rtacha 65 yosh. MDH davlatlarida bu ko'rsatkich erkaklar uchun 63 va ayollar uchun 58 yoshni tashkil etadi. Misol uchun, Tojikiston va Qirg'izistonda pensiya yoshi tegishlicha 63 va 58 yosh, Turkmanistonda tegishlicha 62 va 57 yosh bo'lsa, Qozog'istonda erkaklarda 63, ayollarda 58,5 yoshdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy himoya kontsepsiyasi aholi turmush farovonligini oshirish, kam ta'minlangan oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa aholi qatlamlariga moddiy va ma'naviy

yordam qo'lini cho'zishda o'z aksini topmoqda<sup>92</sup>. Harakatlar strategiyasida ham ushbu sohada bajarilish lozim bo'lgan muhim vazifalar belgilangan.

Sohada bir qancha ijobiy yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish mexanizmlarini zamonaviy moliyaviy siyosat kontsepsiyalari asosida takomillashtirib borish, Jamg'arma mablag'laridan oqilona foydalanish va uni maqsadli sarflashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy tadqiq etish lozim. Buning uchun, eng avvalo, pensiya ta'minoti nazariyasi va pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosati, davlat pensiya ta'minoti tizimidagi pensiyalarning turlari, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti borasida qonunchilikni takomillashtirib borish muhimdir. Ushbu sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, sohaga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, arxivlar faoliyatini yanada rivojlantirish fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligini kamaytirib, byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Pensiya ta'minoti tizimidagi mablag'lar muvozanatini va mutanosibligini ta'minlash muammosi har bir mamlakat pensiya islohotlaridagi asosiy masalalardandir. Bizning fikrimizcha, Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanat buzilishining kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat:

- Pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanishida korxona, tashkilot va muassasalarda yuzaga kelayotgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari;
- korxona va tashkilotlarda “konvert” usulida berilayotgan ish haqilarning ko'payib, haqiqiy hisoblangan ish haqining kamayib borayotganligi va shu orqali ish haqi fonidiga nisbatan hisoblangan yagona ijtimoiy to'lovning pasayishi, ularning daromad manbalaridagi ulushi sezilarli pasayishi;
- Pensiya jamg'armasida daromadlarning xarajatlardan ortmasligi, defitsiti yuzaga kelishiga esa Pensiya jamg'armasida harakatda bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarga amal qilinmaganligi va noto'g'ri tayinlangan pensiya turlari hamda fuqarolarga qonunni buzish orqali tayinlangan pensiyalarning ortishi;

---

<sup>92</sup> O'zbekiston Respublikasida “Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish kontsepsiyasi” loyihasi. Ushbu Kontsepsiya BMTTD (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi), Jahon bankining pensiya ta'minoti sohasidagi loyihalari hamda Koreya Respublikasining davlat xizmatchilari Milliy Pensiya Servis va Koreya Respublikasining Milliy Pensiya Servisi tavsiyalariga asoslanadi. [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz).

- pensiya asosini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan tariflarning pastligi;
- muddatidan ilgari to'lanadigan pensiya imtiyozlari, ustamalarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;
- mehnat stajinihg ozligi;
- Pensiya jamg'armasida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlarning huquqiy savodxonligi va boshqa omillar sabab bo'lgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jahon pensiya ta'minoti tizimidagi o'ziga xos muammolar sifatida quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

1. Dunyo bo'yicha pensionerlar sonining o'sib borishi, aholining o'rtacha umr davomiyligining oshib borishi, “dunyoning qarishi” tufayli ularni pensiya mablag'lari bilan ta'minlash yoki moliyalashtirish tizimidagi muammolar, iqtisodiyotda “pensiya yuki”ning oshib borishi;

2. Pensiya jamg'armalari mablag'larining taqchilligi, ushbu taqchillikni byudjet mablag'laridan qoplash masalasi, Pensiya fondi daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi yaqin kelajakda kutilayotgan nomutanosiblik muammosi;

3. Bir pensionerga to'g'ri keluvchi mehnatga layoqatli aholi sonining kamayib borish ehtimoli muammosi. 1980-yillarda er sharida bir pensionerga 5,3 nafar ishlovchi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 4,7 nafarni tashkil qilgan, 2040-yilga kelib bir pensionerga 2,3 nafar ishlovchi to'g'ri keladi, ya'ni umumiy hisobda bir pensioenrga 2 nafar ishlovchi to'g'ri keladi<sup>93</sup>. Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalariga muvofiq, bir pensionerga kamida 3 ta sug'urta badali to'lovchi, ya'ni ishlovchi to'g'ri kelishi kerak.

4. Iqtisodiy faol aholi qatlamini ish bilan band etish muammosi, ularni sug'urta tizimi bilan qamrab olish masalasi, pensionerlarni ish bilan band qilish va ularning yollanib ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozorida ish vaqtlarini o'zgartirish va samarali bandlikni tashkil etish masalasi.

5. 60 yoshdan oshgan pensiya yoshiga etmagan shaxslarning ma'lum bir qismida ishsizlik, nogironlik, bemorlik holatlari kuzatilmoqda va ularni minimal ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlash borasidagi qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi.

<sup>93</sup> <https://sweden.ru/ljudi/starost-v-shvecii>.

### **3.2. Xorijiy mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimidagi ilg'or tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari**

Taraqqiy etgan mamlakatlar pensiya ta'minoti tizimining boy tajribalariga ega.

Germaniya davlat pensiya ta'minoti tizimida majburiy davlat pensiya sug'urtasi, ishlab chiqarish pensiya sug'urtasi hamda xususiy sug'urtaga asoslangan pensiya ta'minoti amal qiladi. Germaniyada barcha banklar huzurida nodavlat pensiya fondi tashkil etilgan va mijozlarning pul mablag'lari ushbu fondga joylashtiriladi. Germaniyada fuqarolar mehnat faoliyati boshlangandan so'ng davlat pensiya sug'urta tizimida avtomatik ravishda sug'urtalangan shaxsga aylanadi.

Fransiya pensiya tizimining asosiy xususiyati shundaki, bu tizim ikki asosiy prinsipga tayanadi: jamg'arib boriladigan pensiyalarni sug'urtalash – bunday holatda pensiyalar kishi hayotining butun umri davomida to'plab borgan mablag'lari hisobidan to'lanadi; avlodlar birdamligi – bunda pensiyalar ishlayotgan fuqarolarning ajratmalari hisobidan to'lanadi. Fransiya pensiya tizimining o'ziga xosligi uning tarkibida xilma-xil alohida pensiya dasturlarining ko'pligidir.

Yaponiya pensiya ta'minoti modelida pensiya to'lovlarini moliyalashtirishda byudjet mablag'lari etakchilik qiladi. Yaponiya pensiya tizimi quyidagi 2 jihat bilan xususiyatlanadi:

- bazaviy pensiyalar. Ushbu pensiyalarni faoliyat turi va millati, daromadlari darajasidan qat'iy nazar mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar olish huquqiga ega. Bazaviy pensiyalar yoshga doir (65 yoshga to'lgan va sug'urta staji mavjud bo'lgan), nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalariga ajratiladi);


- davlat va kasbiy pensiyalar (bu pensiya turini yollanma ishchilar bazaviy pensiyasiga qo'shimcha ravishda oladilar).

Yaponiya fuqarolari uchun qarilikda ijtimoiy himoyasiz qolish xavfi deyarli mavjud emas. Yaponiya Hukumati har qanday inqirozlar sharoitida ham fuqarolarining pensiyasini 4-5 yilga etadigan darajada zahira ta'minlab qo'ygan. Yaponiya "Government Pension Investment" pensiya fondining bugungi kundagi aktivlari 1265 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi. Bunga har qanday taraqqiy etgan davlatning ham

imkoni yo'q. Masalan, taraqqiy etgan mamlakatlardan Germaniya va Buyuk Britaniya pensiya fondi zahiralari fuqarolar pensiyasini to'lash uchun atigi 2-3 oyga etadi, xolos.

AQSh pensiya tizimidagi mablag'lar turli moliyaviy vositalarga investitsiya qilinadi va bu hol pensiya mablag'lari barqarorligini ta'minlab beradi. Pensiya mablag'lari miqdori, nafaqat, mablag'larning turli moliyaviy vositalarga investitsiya qilinishiga, balki o'rtcha ish haqi miqdori va shunga mos ravishda sug'urta badallari miqdoriga ham bevosita bog'liqdir. Albatta, rivojlangan mamlakatlarda yillik o'rtacha ish haqi miqdori yuqori bo'lib, bu holat davlat va xususiy pensiya fondlariga to'lanadigan sug'urta badallari hajmining ham mutanosib ravishda kattaligini ko'rsatadi. Shunga mos ravishda pensiyalarning o'rtacha miqdori ham yuqoridir.

EIda pensiya ta'minoti sohasidagi siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida ayrim tadbirlarni qayd etish mumkin (3.1-rasm).



**3.1-rasm. Evropa Ittifoqining pensiya ta'minoti sohasidagi siyosatining ustuvor yo'nalishlari<sup>94</sup>**

Masalan, aholining mehnat faoliyatining davomiyligini oshirish va fiskal siyosatni o'zgartirish pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlashning tayanch yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu tadbir orqali pensiya tizimining taqsimlovchi elementlarining faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larining byudjetga tushishi ta'minlanadi. EI mamlakatlarida hayot davomiyligining oishb borishi pensiya

<sup>94</sup> Magistrant tomonidan ishlab chiqilgan.

tizimida pul mablag'larining taqchiligini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biridir. Bunday taqchilik pensiya tizimida inqirozlarni yuzaga keltiradi va jiddiy islohotlar olib borilishini talab qiladi.

Italiya, Fransiya va Chexiyada mehnat faoliyati davomiyligini oshirishga erishishning asosiy vositalaridan biri minimal mehnat stajini oshirishdir. Portugaliyada aholi jamg'arib boriladigan pensiya bo'yicha rag'batlantiriladi, qolgan EI mamlakatlari pensiyaga chiqish yoshini oshirish hisobiga o'z maqsadlariga erishadi. Pensiya yoshini oshirish tadbirlarini amalga oshirishda keksa yoshdagi ishchilar uchun mehnat sharoitlarini yaratish zarur bo'ladi. Bunday sharoit qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va malaka hamda kasbiy tayyorgarligini oshirishni ko'zda tutuvchi ta'lim dasturlarini ham nazarda tutadi<sup>95</sup>. Masalan, Germaniyada jami kompaniyalarning 30 foizidan ziyodi keksa kishilar mehnatidan foydalanishadi va bunda keksa ishchilar yosh xodimlar uchun ustoz, murabbiy, maslahatchi funksiyalarini (kasbiy tajribalarini o'rgatadi) bajarishadi, 15 foiz korxonalar keksa ishchilarni kasbiy tayyorgarlikdan o'tkazadi.

Shunday qilib, EI mamlakatlarida milliy pensiya tizimini isloh qilishda mehnat faolligi davrini oshirish pensiya ta'minoti sohasidagi siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bundan maqsad pensiya tizimini qo'shimcha moliyalashtirish va aholi oldidagi pensiya majburiyatini bajarishdan iborat.

Xorij tajribasi asosida pensiya modellarini o'rganar ekanmiz, O'zbek modeliga yaqin bo'lgan xorij modellarini o'rganib, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish ham muhimdir. Mazkur pensiya ta'minoti tizimi modellaridan biri Rossiya Federatsiyasida mavjud pensiya ta'minot tizimidir. Majburiy pensiya ta'minoti va mehnat pensiyalari to'g'risidagi qonunlar paketi qabul qilinishi bilan Rossiya Federatsiyasida pensiya ta'minoti tizimining quyidagi tarkibi yuzaga keldi:

– qarilik yoki nogironlik bo'yicha mehnat pensiyasini hamda qarovchisini yo'qotganlik uchun mehnat pensiyasini hamda qarovchisini yo'qotganlik uchun mehnat pensiyasini o'z ichiga oluvchi majburiy pensiya ta'minoti;

---

<sup>95</sup> Черняева Д. В. Повышение пенсионного возраста как элемент пенсионной реформы: сравнительно-правовой анализ // Трудовое право. 2010. № 6. С. 23–29.

– ish beruvchilarning badallari va fuqarolarning mustaqil pensiya jamg'armalari hisobidan to'lanadigan pensiyalarni o'z ichiga oluvchi ixtiyoriy pensiya ta'minoti.

Pensiya tizimining tarkibiy qismlaridan har birini mufassalroq ko'rib chiqamiz. Majburiy pensiya ta'minoti. Pensiya islohoti kontsepsiyasiga binoan hozirgi davlat pensiyasi uch qismdan tashkil topishi lozim.

1. Asosiy yoki ijtimoiy qonun bilan belgilangan, hamma uchun bir bo'lgan pensiya eng kam miqdori. U ilgari qonunlar, farmonlar bilan belgilangan pensiya eng kam miqdori, kompensatsiya to'lovlari va pensiyaga ustamalarni birlashtirilgan. Uning miqdori maoshga ham, mehnat faoliyati davomida to'langan ta'minot badallari summasiga ham bog'liq emas. Umuman olganda, shaxsning mehnat faoliyati qanday bo'lganidan qat'iy nazar, davlat unga inflyatsiyaga muvofiq indeksatsiya qilinadigan muayyan darajadagi daromad to'lanishini kafolatlaydi. Ta'minot qismi pensiya stajiga, ya'ni korxona xodim uchun Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni amalga oshirgan davrga va ajratmalar summasiga bog'liq. Shaxsga har oyda to'lanadigan mehnat pensiyasi ta'minot qismini miqdorini hisoblash juda oson: pensiya tayinlangan kungacha shakllangan pensiya kapitalni kutilayotgan pensiya to'lovlari davridagi oylar soniga bo'lish kifoya.

2. Jamg'arib boriladigan tizim ham pensiya jamg'armalari miqdoriga bog'liq. Biroq ta'minot qismidan farqli o'laroq, mazkur pensiya jamg'armalari, nafaqat, ish beruvchi to'lagan soliqlar summasidan tarkib topadi, balki bu mablag'larni har xil investitsion vositalar yordamida ko'paytiradigan nodavlat pensiya jamg'armasi yoki boshqaruvchi kompaniyaning tanlanishiga ham muayyan darajada bog'liq bo'ladi. Pensiya tayinlangandan so'ng jamg'arib boriladigan qismining miqdori har yili investitsiyalashdan olingan daromadlarni hisobga olgan holda indeksatsiya qilinadi.

“Rossiya Federatsiyasida majburiy pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Federal qonunga binoan pensiya eng kam miqdori shakllantirish uchun kiritiladigan badal miqdori maoshning 26 foizini tashkil etadi. “Nodavlat pensiya jamg'armalari to'g'risida”gi Federal qonunga binoan, yuqorida ko'rsatilgan badallar kimning foydasiga kiritilayotgan yoki ilgari kiritilgan bo'lsa, shu shaxs Rossiya

Federatsiyasining Pensiya jamg'armasining o'z pensiyasining jamg'ariladigan qismini nodavlat pensiya jamg'armasiga yoki boshqaruvchi kompaniyasiga o'tkazish mumkin. Buning uchun mijoz tomonidan jamg'arma yozma ariza oladi.

3. Ixtiyoriy pensiya ta'minoti. Rossiya pensiya tizimining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi va nodavlat pensiya jamg'armalarida pensiya ixtiyoriy badallari hisobidan shakllantirishni nazarda tutadi.

Rossiya Federatsiyasi hozirgi vaqtda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar kompleksining muhim tarkibiy qismlaridan biri pensiya islohotlaridir. Bugungi kunda pensiya islohotlari pensiya hisoblashning taqsimlash tizimini, uni jamg'arma qismi bilan to'ldirgan va davlatning har bir fuqaro oldidagi sug'urta majburiyatlarini alohida hisobini olib borgan holda, o'zgartirishga yo'naltirilgan. Islohotlarning asosiy vazifasi pensiya tizimining uzoq muddatli moliyaviy muvozanatiga erishish, fuqarolarning pensiya ta'minoti darajasini oshirish va ijtimoiy tizimda qo'shimcha daromadlar uchun barqaror manbani shakllantirishdan iborat.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya tizimi tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimi taraqqiyotini ta'minlashda quyidagi taklif-tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

– birinchidan, taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimi tajribalaridan ijodiy foydalanish asosida O'zbekistonda 1) mamlakatdagi demografik omillar; 2) pensionerlar soni; 3) imtiyozli shartlardagi pensiyalar; 4) pensiyalarga ustama haqlar; 5) pensiyalarning o'rtacha miqdori; 6) aholining o'rtacha umr davomiyligi yoki yashash muddati; 7) pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari; 8) pensionerlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar; 9) ish bilan band aholi (sug'urta badali to'lovchilar) sonining pensionerlarga nisbati; 10) Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligi; 11) pensiya ta'minotining etarlilik darajasi; 12) mehnat migrantlarining davlat pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi; 13) ish bilan band aholining pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi; 14) pensiyaga chiqish yoshi va boshqa omillarning chuqur tahlili asosida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish Kontsepsiyasi ishlab chiqilishi zarur. Bu Kontsepsiya quyidagilarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir: pensiya ta'minoti tizimining joriy holati va

omillari; pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishning maqsadi va yo'nalishlari; pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish; nodavlat pensiya ta'minoti tizimini tashkil etish va ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish; ijtimoiy sug'urta tizimida ishtirok etishning rag'batlantiruvchi omillari; pensiya ta'minoti tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni faollashtirish; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirish;

– ikkinchidan, istiqbolda aholining o'rtacha umr davomiyligining oshishi, tibbiyot xizmatlarining rivojlanishi, keksalar mehnat faoliyati uchun shart-sharoitlarning yanada yaxshilanib borishi va boshqa demografik omillarni hisobga olib, ayni vaqtda muhokama qilinayotgan va qabul qilinishi ko'zda tutilgan Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish kontsepsiyasida O'zbekistonda fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshini oshirish masalasini qayta ko'rib chiqish zarur;

– uchinchidan, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda xususiy pensiya fondlarini tashkil etish, nodavlat pensiya ta'minotini yo'lga qo'yish, xususiy pensiya rejalarini ishlab chiqish zarur. Buning uchun, eng avvalo, unga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi kerak bo'ladi. Xususan, "Nodavlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish, muhokama qilish va qabul qilish zarur.

### **3-bob bo'yicha xulosa:**

– pensiya ta'minoti tizimidagi o'ziga xos muammolar sifatida 1) Dunyo bo'yicha pensionerlar sonining o'sib borishi 2) Aholining o'rtacha umr davomiyligining oshib borishi; 3) Iqtisodiyotda "pensiya yuki"ning oshib borishi; 4) Pensiya jamg'armalari mablag'larining taqchilligi; Pensiya fondi daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi yaqin kelajakda kutilayotgan nomutanosiblik; 5) Bir pensionerga to'g'ri keluvchi mehnatga layoqatli aholi sonining kamayib borish ehtimoli muammosi; 6) Iqtisodiy faol aholi qatlamini ish bilan band etish muammosi va boshqalar.

– Germaniya davlat pensiya ta'minoti, nodavlat pensiya ta'minoti va xususiy pensiya rejalariga ega. Bunday holat pensionerlarning munosib turmuj darajasini ta'minlash imkonini beradi. Mamlakatda demografik jarayonlarni yaxshilash

maqsadida pensiya sug'urtasi to'g'risidagi qonunchilikda farzandlar parvarishi va tarbiyasi bilan band oilalarga ma'lum imtiyozlar ko'zda tutilgan. Xullas, Germaniya iqtisodiyoti rivojlangan va ijtimoiy himoya darajasi hamda pensionerlarning hayot darajasi yuqori bo'lgan, ijtimoiy yo'naltirilgan mamlakat hisoblanib, bunda kishilar har qanday holatda ham davlat e'tiboridan chetda qolmaydi;

- Fransiyada jamg'arib boriladigan va “avlodlar birdamligi”ga asoslangan pensiyalar amal qiladi. Fransiya pensiya tizimining o'ziga xosligi uning tarkibida xilma-xil alohida pensiya dasturlarining mavjudligidir va bunda majburiy pensiya sug'urtasi, korporativ pensiyalar va xususiy pensiya ta'minoti muhim o'rin egallaydi. Barcha fransuzlar pensiya olish huquqiga ega, bunda mehnat staji talab etiladi;

- AQSh pensiya ta'minoti tizimida davlat pensiyalari, korporativ pensiyalar (xususiy jamoa) va jamg'arib boriladigan pensiyalar (xususiy individual) alohida o'rin egallaydi. AQSh fuqarolarning deyarli barchasi turli bank-moliya muassasalarda o'zining shaxsiy pensiya hisobraqamlariga egaligi ularning keksalik davridagi ijtimoiy himoyasini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bunda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining ulushi yuqoridir;

- taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya ta'minoti tajribalari shundan dalolat beradiki, zamonaviy pensiya tizimlarining aksariyati “taqsimlovchi” prinsipga asoslangan bo'lib, birdamlik xarakteriga ega va bunda davlatning roli etakchilik qiladi. Ammo, demografik shart-sharoitlar va omillarning o'zgarishi (tug'ilish, aholining o'rtacha umr davomiyligi, pensionerlar soni va boshq.) nodavlat pensiya tizimi va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini joriy qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari – davlat pensiya ta'minoti, majburiy ijtimoiy sug'urta, shaxsiy ijtimoiy sug'urta va boshqalar – qo'llaniladi. Bunda “jamg'ariladigan” va “taqsimlovchi” modellar ham bo'lib, asosan, “kombinatsiyalashgan” model amal qiladi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda pensiya islohotlarining asosiy maqsadi, boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy pensiya tizimini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish yo'nalishlari mavzusida olib borilgan tadqiqotlar natijasi quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to'lanadigan to'lovlarga pensiya deyiladi va ijtimoiy ta'minotning muhim shakli hisoblanadi;

2. Ijtimoiy sug'urta asoslangan pensiya ta'minoti ilk bor Germaniyada "avlodlar birdamligi" prinsipi asosida tashkil etilib, pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liq bo'lgan, ya'ni ishlayotgan fuqarolar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, keyinchalik ular tomonidan to'langan sug'urta badallari miqdoriga mutanosib ravishda pensiya miqdori ham shuncha yuqori bo'ladi va aksincha;

3. Dunyoda pensiya tizimini isloh qilishning uchta modeli: majburiy pensiya sug'urtasi tizimi doirasida taqsimlovchi pensiya tizimining takomillashuvi va jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ixtiyoriy va qo'shimcha (to'ldiruvchi) xarakterga ega ekanligini nazarda tutuvchi pensiya modeli; pensiya tizimining qayta taqsimlash prinsipining afzalliklari hamda uzoq muddatli majburiy jamg'arib boriladigan pensiyaning prinsiplari bilan birlashtiruvchi aralash pensiya modeli (Shvesiya va Sharqiy Evropa mamlakatlari); taqsimlovchi pensiya tizimining o'rnini to'liq qoplovchi va pensiyani moliyalashtirishning jamg'arib boriladigan prinsipiga asoslangan pensiya modeli (Lotin Amerikasi mamlakatlari, jumladan Chili davlati);

4. Germaniya davlat pensiya ta'minoti tizimi majburiy davlat pensiya sug'urtasi, ishlab chiqarish pensiya sug'urtasi hamda xususiy sug'urtaga asoslangan bo'lib, fuqarolarni keksalikda ijtimoiy himoya qilish majburiy pensiya sug'urtasi zimmasiga yuklatilgan. Germaniyada davlat ijtimoiy sug'urtaning rivojlangan tizimi amal qilib, ushbu tizim fuqarolarni turli xil kasalliklardan, ishsizlikdan, shuningdek, keksalik davrida himoya qilinishini kafolatlaydi;

5. Fransiya pensiya tizimi jamg'arib boriladigan pensiyalarni sug'urtalash hamda avlodlar birdamligi pensiya ta'minotidan iborat bo'lib, tizim tarkibida xilma-xil alohida pensiya dasturlari amal qiladi. Bunday holat fuqarolar ijtimoiy ta'minotini yanada yaxshilash imkonini beradi;

6. AQSh pensiya tizimida davlat va xususiy pensiya ta'minoti amal qiladi va AQSh fuqarolari uch turdagi pensiyalar olish imkoniga ega. AQSh pensiya fondi aktivlari jihatdan dunyoda birinchi o'rinda turadi va bu hol pensiya tizimini moliyalashtirishdagi muammolar minimum holatga keltirilgan deb baholanadi;

7. Rossiya pensiya ta'minoti tizimi majburiy pensiya sug'urtasi, nodavlat pensiya ta'minoti hamda davlat pensiya ta'minotidan iborat bo'lib, uning ijobiy jihatlaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish mumkin;

8. Qozog'istonda pensiya tizimi islohotlari ijtimoiy sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda va respublika iqtisodiyotida muhim o'ringa ega. Iqtisodiy rivojlanish modelidan qat'iy nazar, davlatning ijtimoiy taraqqiyoti pensionerlarning hayot darajasi, turmush farovonligini bilan baholanadi va turli mamlakatlarda ijtimoiy ta'minot muammosi davlat darajasida hal etiladi. Shunga muvofiq ko'p yillar davomida Qozog'istonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar pensionerlarning hayot darajasi va turmush farovonligini oshirish imkonini beradi;

9. Taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya ta'minoti tajribalari shundan dalolat beradiki, zamonaviy pensiya tizimlarining aksariyati "taqsimlovchi" prinsipga asoslangan bo'lib, birdamlik xarakteriga ega va bunda davlatning roli etakchilik qiladi. Ammo, demografik shart-sharoitlar va omillarning o'zgarishi (tug'ilish, aholining o'rtacha umr davomiyligi, pensionerlar soni va boshq.) nodavlat pensiya tizimi va jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini joriy qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaning turli institutlarini qamrab oluvchi pensiya tizimining turli modellari – davlat pensiya ta'minoti, majburiy ijtimoiy sug'urta, shaxsiy ijtimoiy sug'urta va boshqalar – qo'llaniladi. Bunda "jamg'ariladigan" va "taqsimlovchi" modellar ham bo'lib, asosan, "kombinatsiyalashgan" model amal qiladi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda pensiya islohotlarining asosiy maqsadi, boshqa

mamlakatlardan farqli o'laroq, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir.

10. Xorijiy davlatlarning ilg'or pensiya tajribalaridan O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirishda quyidagi taklif-tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

– taraqqiy etgan mamlakatlarning pensiya ta'minoti tizimi tajribalaridan ijodiy foydalanish asosida O'zbekistonda 1) mamlakatdagi demografik omillar; 2) pensionerlar soni; 3) imtiyozli shartlardagi pensiyalar; 4) pensiyalarga ustama haqlar; 5) pensiyalarning o'rtacha miqdori; 6) aholining o'rtacha umr davomiyligi yoki yashash muddati; 7) pensiya ta'minoti tizimiga davlat xarajatlari; 8) pensionerlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar; 9) ish bilan band aholi (sug'urta badali to'lovchilar) sonining pensionerlarga nisbati; 10) Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibli; 11) pensiya ta'minotining etarlilik darajasi; 12) mehnat migrantlarining davlat pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi; 13) ish bilan band aholining pensiya sug'urtasi bilan qamrab olinganlik darajasi; 14) pensiyaga chiqish yoshi va boshqa omillarning chuqur tahlili asosida pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish Kontsepsiyasi ishlab chiqilishi zarur. Bu Kontsepsiya quyidagilarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiqdir: pensiya ta'minoti tizimining joriy holati va omillari; pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishning maqsadi va yo'nalishlari; pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish; nodavlat pensiya ta'minoti tizimini tashkil etish va ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish; ijtimoiy sug'urta tizimida ishtirok etishning rag'batlantiruvchi omillari; pensiya ta'minoti tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni faollashtirish; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirish;

– istiqbolda aholining o'rtacha umr davomiyligining oshishi, tibbiyot xizmatlarining rivojlanishi, keksalar mehnat faoliyati uchun shart-sharoitlarning yanada yaxshilanib borishi va boshqa demografik omillarni hisobga olib, ayni vaqtda muhokama qilinayotgan va qabul qilinishi ko'zda tutilgan Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish Kontsepsiyasida O'zbekistonda fuqarolarning pensiyaga chiqish yoshini oshirish masalasini qayta ko'rib chiqish zarur;

– iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda xususiy pensiya fondlarini tashkil etish, nodavlat pensiya ta'minotini yo'lga qo'yish, xususiy pensiya rejalarini ishlab chiqish, jam-arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirish zarur. Buning uchun, eng avvalo, unga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi kerak bo'ladi. Xususan, "Nodavlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish, muhokama qilish va qabul qilish zarur;

– pensiya tizimi samarali amal qilishi uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar o'rtasida ma'lum darajada muvozanat bo'lishi lozim. Biroq, demografik prognozlar respublikada aholining keksayish jarayoni nisbatan tezlashishini va bu muvozanat o'zgarishini, ya'ni keksalarning iqtisodiy faol aholiga to'g'ri keladigan demografik yuki ortib borishini ko'rsatmoqda. Bu holat ishlayotganlarning sug'urta badallari pensiyalarni to'lash uchun ham etmasligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, hozirdan Pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini yaxshilashni talab etadi;

– pensiya tizimida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning jahon darajasidan kelib chiqqan holda milliy pensiya axborot tizimlarini rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish zarur. Internet tarmog'ining milliy segmenti yanada shakllantirilishini ta'minlash, pensiya tizimidagi zamonaviy veb-resurslarini rivojlantirish uchun zarur texnik va qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur;

– Chili va Qozog'iston pensiya modellaridan kelib chiqib, fuqarolarning jamg'ariladigan pensiya tizimidagi ixtiyoriy ishtirokini rag'batlantiruvchi omillarni yaratish zarur. Jumladan, jamg'ariladigan mablag'larga to'lanadigan foiz stavkalarini oshirish, mablag'lardan foydalanishda imtiyozlar yaratish, mablag'larni investitsiyalashda ishtirok etish va h.k.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007-yil 25-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 2-dekabrdagi "Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli Qarori bilan.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 martdagi "Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2826-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 4-avgustdagi 391-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ijtimoiy sug'urta jamg'armasining tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrdagi 444-sonli "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktyabrdagi "Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 490-sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2018 yil 13 fevraldagi "Ichki ishlar organlari xodimlariga pensiya va nafaqa tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 36-sonli buyrug'i.

18. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiyl mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.

19. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

20. Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 232 b.

21. Axmedov D.Q. Ijtimoiy ta'minot huquki. Mas'ul muharrir: yu.f.d. I.Nasriev. – T.: "TDYUI", 2008. – 202 b.;

22. Borisenko N.Yu. Pensionnoe obespechenie. Uchebnik. – M.: «Dashkov i K0», 2009. – 576 s.

23. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2012. – 676 b.

24. Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasi faoliyati. – T.: "Barkamol fayz media", 2017. – 280 b.

25. Kasimova G.A., Sholdorov D.A. Pensiya ta'minoti mablg'larini boshqarish. Monografiya. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2017. – 225 b.

26. Kasimova G. Botirov A. Ijtimoiy soha: boshqarish va moliyalashtirish. Monografiya. – T.: "Tamaddum", 2016.

27. Orlov S.N., Shemetov A.P. Pensionnoe obespechenie v Rossiyskoy Federatsii. Monografiya. – Kurgan: "KGU", 2013. – 156 s.

28. Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. Darslik. – T.: "infoCom.UZ", 2010. – 367 b.

29. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot", 2013. – 350 b.

30. Romanchenko V.S. Sravnitelniy analiz mejdunarodnogo opita razvitiya pensionnoy sistemi. Vestnik MIEP. 2015. № 3 (20). S. 58-73.

31. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 288 p.;

32. Vaxabov A.V. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimini isloh etish istiqbollari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017 yil 15 noyabr. – Toshkent: "Universitet", 2017. 65-b.

33. Волков Я. Моделирование пенсионных реформ и оценка неявного пенсионного долга // Вопросы экономики. – Москва, 2009. - №4. – С. 113-127.

34. Федотов А.И. Анализ моделей построения пенсионных систем // Труды ИСА РАН. 2008. № 38. С. 168–173.;

35. Костюнина Г.М. Реформирование пенсионных систем в странах Латинской Америки // Труд за рубежом. – 2007. – №3. – С.79-97.;

36. Umurzakov B. X. Mehnat daftarchasi va fuqarolarning mehnat stajini hisoblab chiqish muammolari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017-yil 15-noyabr. – Toshkent: "Universitet", 2017. 13-b.

37. Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to'lovlaridan nima bilan farqlanadi?. – T.: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. 5-b.

38. Shoha'zamiy Sh.Sh. Pensiya ta'minoti tizimi investitsion modelining qiymatli antiinflyatsion kontseptsiyasi. "Moliyachi ma'lumotnomasi" jurnali, 9-son, 2015. 35-36-b.;

39. Qosimova G. Inson huquqlari kafolati – davlat ijtimoiy siyosatining asosiy mezon. "Demokratlashtirish va inson huquqlari" ilmiy-ma'rifiy jurnal. Toshkent, 2018 yil 1 (77)-son, 46-b.

40. Kasimova G.A. O'zbekistonda xorijiy davlatlar pensiya jamg'armalari faoliyatining tajribasidan foydalanish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 6-son, 2017. [www.interfinanse.uz](http://www.interfinanse.uz).

41. Ижаева А.Р. Концепция развития пенсионной системы Российской Федерация в посткризисный период: автореф. ... к.е.н. – Москва: ФГБОУ ВПО Гос. Унив. Управ..2013. – 31 с.

42. Mamanazarov M.A. Jamg'ariladigan pensiya tizimining afzalliklari va kamchiliklari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017 yil 15 noyabr. – Toshkent: "Universitet", 2017. 73-b.

43. Mamatov B.S., Xo'jamqulov D.Yu. Pensiya ta'minotining xorij tajribalari va xususiyatlari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2016. [www.interfinanse.uz](http://www.interfinanse.uz).

44. Муравлева Т.В. Новые подходы к определению пенсионного возраста//Финансы и кредит. – Москва, 2011. - №43(475). – С.2-6.

45. Xashimov P.Z. Социальная защита населения в Швеции. “Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish” mavzusida O’zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag’ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to’plami. 2017 yil 15 noyabr. – Toshkent: “Universitet”, 2017. 69-b.

46. Fayzullaev J.N. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Fransiya pensiya tizimiga ta’siri va uni bartaraf etishga qaratilgan islohotlar. “Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish” mavzusidagi O’zbekiston Milliy universitetining 100 yilligiga bag’ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to’plami. – Toshkent, 2017 yil 15 noyabr. 87-b.

47. Зирянова Т.В. Кот Е.М. Зарубежный и отечественный опыт регулирования пенсионной системы. – Екатеринбург: «Финансы и кредит», №2 (170), 2007. – С. 28.

48. Черняева Д. В. Повышение пенсионного возраста как элемент пенсионной реформы: сравнительно-правовой анализ // Трудовое право. 2010. № 6. С. 23–29.

49. Мониторинг показателей качества жизни населения в странах Содружества Независимых Государств 2013-2016. Межгосударственный Статистический комитет Содружества Независимых Государств. – Москва: 2017. – 70 с.

50. Материалы центр экономических исследований БЕРОС (Белорусский экономический исследовательско-образовательный центр). Минск, Беларус. 2015 г. – Стр. 22. Пенсионная система Беларуси: текущее состояние и необходимость реформ. [http://www.beroc.by/publications/policy\\_papers](http://www.beroc.by/publications/policy_papers).

51. Старение и политика занятости / Sekretariat OESR. [www.forum-tvs.ru/index.php?showtopic=14395](http://www.forum-tvs.ru/index.php?showtopic=14395).

52. Социальное обеспечение во Франции. – М. Агенства по развитию и координации международных отношений. 2014. [www.adecri.org](http://www.adecri.org). – S. 17-25.

53. Arenas de Mesa A., Behrman J., Mitchell O., Todd P. The Chilean Pension Reform Turns 25: Lessons from the Social Protection Survey. University of Pennsylvania, USA. July 2006. – p.30.

54. Quiesser M. Pension Reform: Lessons from Latin America. OECD Development Center. Policy Brief №15. – Geneva, 1999.

55. Old age in Europe. Luxemburg, 2001. P.5.

56. Pension Systems in World Bank-Assisted Countries. Washington, 2005.- p.67.

57. Pensions at a Glance 2015: OECD and G20 indicators, OECD Publishing.

58. Pensions at a Glance 2017: OECD and G20 Indicators © OECD 2017. – P. 155.

59. Dynamic Social Security for Europe: A social model for recovery and growth // Social Policy Highlight. Geneva: International social security association, 2010. - № 11. - P. 2.

60. European Commission. WHITE PAPER An Agenda for Adequate, Safe and Sustainable Pensions. Brussels, 16.02.2012

61. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunusobod tumani bo'limi ma'lumotlari

62. Internet saytlari:

- [www.gov.uz](http://www.gov.uz) (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali);
- [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti);
- [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);
- [www.stat.uz](http://www.stat.uz) (O'zbekiston Davlat statistikasi qo'mitasi sayti);
- <http://pfru.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining sayti);
- <http://www.the-village.ru>;
- <http://sudelafrance.com>;
- <http://pensionreform.ru>;
- <https://mgimo.ru/upload/iblock/.pdf>;
- <http://www.the-village.ru>;
- <http://cbd.minjust.gov>;
- <http://socfond.kg>;
- <https://matsne.gov>;
- <https://sputnik-georgia.ru>;
- <http://idsm.ws/wp-content/uploads/2016/04/Pensions.pdf>;
- <http://liberalclub.biz>;
- [http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2015/TGU\\_6\\_174.pdf](http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2015/TGU_6_174.pdf);
- <http://nauchkor.ru/uploads/documents>;
- <http://dx.doi.org>;
- <https://sweden.ru/ljudi/starost-v-shvecii>.